

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası

AMALIY BEZAK SAN'ATI
Fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA


2023/2024 o'quv yili sirtqi ta'lim shakli, 4-kurslari uchun

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi


NAMANGAN – 2023

Fanning o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi 1-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

A.Amanullayev  NamDU, Amaliy san'at va rangtasvir kafedrası p.f.n., dotsenti

Taqrizchi:

B.Jabbarov  NamDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikası kafedrası dotsenti

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Tasviriy san'at va muhandislik grafikası kafedrasining 2023 yil 28-iyundagi 11- son yig'ilishidagi muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



dots. H.Rizayev.

Fanning o'quv uslubiy majmuasi San'atshunoslik fakul'tet kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya qilingan. (2023 yil 29-iyundagi 11-sonli bayonnoma)

Fakultet dekani:



A.Sayfitdinov

Ushbu o'quv uslubiy majmua Namangan davlat universitetining 2023 yil 11-iyuldagi 12-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I.	O'QUV MATERIALLAR.....
1)	Ma'ruza mashg'ulotlari.....
2)	Amaliy, seminar mashg'ulotlari.....
II.	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI.....
1)	Kurs ishi bo'yicha tavsiyalar.....
2)	Mustaqil ish bo'yicha tavsiyalar.....
III.	GLOSSARIY.....
IV.	ILOVALAR.....
1)	Fan dasturi.....
2)	Ishchi fan dastur.....
3)	Tarqatma materiallar.....
4)	Testlar.....
5)	Baholash mezonlari.....
6)	Boshqa ma'lumotlar.....
7)	O'UM elektron variant.....

O'QUV
MATERIALLAR

AMALIY MASHG'ULOT

1-Mavzu: Naqsh va uning turlari. Oddiy naqsh elementlarini chizish. Gul, barg va boshqalarni chizish.

Reja:

- 1. Naqqoshlik - mustaqil san'at turi sifatida.***
- 2. Naqsh turlari.***
- 3. O'simliksimon va geometrik Naqshlar ustida ishlash.***

Tayanch sho`zlar:

Islimiy - o'simliksimon naqsh turlari, Pechak o't - chirmavuuq, Morpech - ilon izi naqsh turlari, Gardish - aylana shakli

Darsning maqsadi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis turlaridan biri naqqoshlik san'atini o'rgatish

Naqqoshlik - o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng jozibali va nafis to'rlaridan biridir! Binobarin xalq amaliy san'atining barcha turlarini naqsh elementlarisiz tasavvur etish qiyin. Naqsh - gul, bezak degan ma'noni anglatib, amaliy san'at asarlariga chiroy bagishlaydi. Bunday bezak elementlari esa, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, xayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko'rinishlari orqali aks ettiriladi.

Naqqoshlik san'ati qadimdan insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me'moriy obidalar, turar joy va ro'zgor buyumlari go'zallikni idrok etishimiz, ma'naviyatimiz va o'zligimizni chuqurroq anglashimiz borasida bebahodir.

Ota-bobolarimizning bizga qoldirgan ma'naviy merosi cheksiz. Shulardan biri san'at asarlaridir. Xalq amaliy san'ati asarlari nafagat bezakdorligi, chiroyli shakllari, qadimiyligi hamda chuqur falsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlari bilan o'zining yuksak qiymatiga ega.

Farzandlariga yoshlik choglaridan hunar o'rgatib kelgan xalqimiz o'zining an'alaridan, urf-odatlaridan, turli ma'naviy meroslaridan unumli foydalanib keladi. Bugungi kunimizda ham xalqimizning an'alarini, usta va shogird asosida yoshlarimizga hunar o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Aynigsa oliy ta'lim muassasalarini, turli san'at akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda yoshlarning

kasb-hunar faoliyati bilan shugullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ularni mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berish uchun samarali mehnat qilinmoqda. Shuningdek, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va uni yanada yuksaltirish yo'lida ta'lim-tarbiya tizimini yuksaltirish muhim ahamiyatga egadir. Naqqoshlik san'ati ham hunar, ham san'atdir. Bu va bu kabi san'at turlarini egallash yoshlarning badiiy madaniyatini, tafakkurini, dunyogarashi va estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Naqqoshlik san'ati asirlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ko'z qorachigiday asrab-avaylab kelindi va kelinmoqda. Hozirgi yosh avlod uni qabul qilib olarkan, o'z oldida turgan mas'uliyatni bir daqiqa ham unutmashligi lozim.

Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyaning jahon standartlari talab darajasida bo'lishi alohida ahamiyatga egadir. "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'grisida"gi Prezidentning Farmoni bir necha muhim, dolzarb masalalarni o'z ichiga olishi bilan birgalikda - ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini parpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Hozirgi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiyaning jahon standartlari talab darajasida bo'lishi alohida ahamiyatga egadir. Bugungi kunimizda amaliy san'at ustalarining yangi avlodlarini tarbiyalash, ularning barkamollikka erishishlari yo'lida barcha sharoitlar mavjud.

Xalq amaliy san'atidan olib borilayotgan o'quv mashq'ulotlar bo'lajak muallimlarni har tomonlama yetuk, jahon andozasiga javob bera oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashga, qolaversa maktab o'quvchilarini hozirgi zamon talab darajasiga javob bera oladigan qilib tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek bu sohada yangi o'quv rejalar, dasturlar, leksiya kurslari, o'quv qo'llanma va darsliklarni yaratish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Etiboringizga xavola etilayotgan o'quv metodik qo'llanma "Naqqoshlik" fani uchun chop etilgan dastur mazmunlari asosida yozildi. Qo'llanmaning har bir

mavzusi matni (foto va chizmalar) yozma ish variant namunalari, naqqoshlikka doir atamalar izohli lugati va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda berilgan.


"Naqqoshlik" o'quv metodik qo'llanmasining asosiy maqsadi siz yoshlarni qadimiy va maftunkor naqqoshlik sirlaridan boxabar etib, ustoz va shogird milliy an'analarini davom etishiga, Naqsh kompozitsiyalarini mustaqil ravishda tuzish orqali ularni mos ravishda qo'llay olish qoidalarini o'rgatishga qaratilgan.


Eng sodda naqsh elementlarini chizish.

Naqsh - o'zbek xalq amaliy san'atining tarkibiy qismi bo'lib, ramziy ma'nolari, tabiiy shakl va ranglar jozibasi bilan go'zal.

Insoniyat qadimdan turar joylarni, uy-ro'zgor buyumlari va boshqa shu kabi amaliy san'at namunalarini bezashda, nafis naqsh tasvirlaridan keng foydalanib kelmoqda. Shu qatori u o'z hayoti bilan boglig bo'lgan yon-atrofidagi barcha inshoot va jihozlarni ona tabiat go'zalligi bilan uyg'unlashuvi orzusida yashab, ijod qiladi. Xo'sh, naqshning o'zi nima? Uning qanday turlari mavjud? Naqsh elementlarini qanday hosil qilinadi?

Naqsh so'zi arabcha – tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o'simlik parranda, hayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng sodda ko'rinishlarda takrorlanib keluvchi tasviri ya'ni bezakdir.






O'zbek xalq amaliy san'atining barcha turlari, jumladan naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kandakorlik kabilar uchun naqsh elementlarining chizilishi o'xshash ko'rinsada, bajarilishi, texnologiyasi va pardoqlash usullari turlichadir. Masalan: Ganchkorlik va yog'och o'ymakorligida naqshlar o'yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb bilan, zardo'zlikda qadab va shunga o'xshash usullar yordamida naqsh solinadi.

Naqshlar o'simliksimon geometrik, murakkab deb ataluvchi turlarga bo'linib ustalar tilida ko'pincha islimiy, girih va gulli girih (aralash) kabi iboralarda ham uchraydi. O'simliksimon naqshlar asosan gul novda, ko'rtak, barg, guncha kabi elementlarning o'zaro ma'lum tartibda bog'lanib tuzilishidir. Islimiy naqshlar tabiatan novda elementlarining bir tomonlama harakatlanib o'suvchanligini anglatish bois yuguruvchi nomiga ham ega. Jumladan majnuntol, chirmovuq kabi o'simlik elementlari aks ettirilgan naqshlarni kuzatar ekanmiz, ko'z ilgamas jimjimoli novda yo'llari tabiatan bir tomonga harakatlanib chizilganligini yaqqol sezamiz. O'simliksimon naqshlar yakka (bir) va go'sh (ikki) bandli novda ko'rinishlarida ishlanadi. Ularga misol qilib: ro'ta xoshiya, raftor, namoyon,

mehrob, turunj, munabbat va xokazo kabi naqsh namunalarini olish mumkin. Girih naqshi chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to'gri chiziqlarning o'zaro kesishuvi



natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi. Girih naqshlari ham islamiy naqsh turlari singari ma'lum tagsim (rapport) bo'laklardan iborat bo'lib, alohida tuzilishlarga ega bo'ladi. Girih naqshlari panjara-to'siq ma'nosini ham anglatib to'r kataklari yordamida tez va onson chiziladi. Panjara naqshlari ayniqsa pargori uslubida, turli o'ymakorlik san'atlarida ham qo'llaniladi.

Gulli girih deb ham ataluvchi murakkab naqshlar o'simliksimon va geometrik naqsh turlarining o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Ma'lumki har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlarini yig'indisidan iborat. Naqsh elementlariga asos qilinib, tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, hayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng sodda ko'rinishlaridagi "stillashtirilgan" holatlari olinadi. Bunda tanlangan shakl ko'rinishini naqsh kompozitsiyasi tarkibiga go'shishi mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi.

Naqshda elementlarning o'zaro birikib borishi, muttanosib bog'lanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil etadi. Naqsh chizishni o'rganishda dastlab quyidagi shakllar chizib o'rganiladi:

- barglar (barg elementlarini chizish)
- gullar (gul elementlarini chizish)
- novdalar (novda elementlarini chizish)
- bog'lam va sirtmoq (ularni elementlarini chizish)
- margula va ko'rtak (uning elementlarini chizish)
- madohil elementlarini chizish
- gajak va jingalak elementlarini chizish

- bofta va shkufta elementlarini chizish

Barglar islamiy naqsh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis ko'rinishlarda tasvirlanadi. Naqqoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina atirgul, uzum va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, naqsh kompozitsiyalarini tuzishda qadimdan foydalanib kelganlar. Barglar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi: Oddiy barglar-bodom bargi, arra tishli va to'lginsimon barg ko'rinishlarida uchraydi.


Gullar-islamiy naqsh elementi bo'lib, naqshlarga targil pardozi berilganidan so'ng yanada ko'rk va xusn bagishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud bo'lib, o'ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko'rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, ko'vachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizgul va boshqa gul turlari kiradi.

Novda - o'simliksimon naqsh elementi sirasiga kiradi. U gul, barg va guncha kabi boshqa elementlarini o'zaro boglab biriktirib to'ldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat turunj va turli murakkab naqsh namunalaridan novda elementlari yakka va go'sh bandlarda uchraydi. Bog'lam va sirtmoqlar islamiy naqsh elementlari. Novda va ramka shakllariga xos boglovchi oddiy argon ko'rtak va sirtmoq bog'lami turlarini eslatadi.

Tanab-naqsh namunalaridagi asosiy shakl yo'llarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mehrob, modohil, bodom, qalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.


Tanob bafta, shkufta, bog'lam elementlari bilan bog'lanadi.





Margula elementi ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiruvchi go'sh chizikli gajak, margula naqsh kompozitsiyalarida ko'rtak elementlari bilan birin-ketin gohida o'rindosh sifatida ham uchraydi. Ko'rtak elementi asosan bodom, qalampir, tirnoq ko'rinishlariga ega. Margula va ko'rtak elementlari novda, tanob, yasovchi ko'rinishlarini boyitadi. Madohil-islmiy naqsh elementi madohil lola, tumor, uchbarg ko'rinishlarini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi. Madohil mehrob namoyon naqshlarining yugori qismlariga xos elementdir. Gajak va jingalak-islmiy naqsh elementi. Tabiatda uchraydigan uzum, karnaygul, pechak o't novdalarini stilizatsiyalashtirilgan holdagi ko'rinishlaridir. Gajak va jingalak elementlari namoyon, guldasta va islmiy naqsh birikmalarida uchraydi. Bofta islmiy va murakkab naqshlar elementi. Naqshdagi patnis tanob, mehrob, savat ko'rinishidagi ramkalarni yurak shaklidagi elementlari bilan bog'laydi. Bafta naqshlarda boglovchi elementlar tarkibiga kiradi. Bofta islmiy ro'ta va girih hoshiya naqshlarining ham o'ziga xos elementlaridan biridir.

Shkufta – islmiy naqsh elementi, qisqacha shkift deb ham ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni ko'rtak-gajak



ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi. Naqshlarda shkufta va bafta elementlari to'q ranglarda bo'ladi. Naqqosh tabiiy shakllarni stillashtirib - qayta ishlar ekan u element va rang tuslariga oid ramziylik falsafasini ham keng yoritib berishga intiladi.

"Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaqlarini kuylaganlar. Naqqosh ustalar inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarini ajoyib naqshu nigorlar bilan bezaganlar. Naqshlardagi mazmunlarni anglash uchun naqshning har bir elementi va ranglarini ramziy alifbosini o'rganish kerak.

Ramz nima o'zi?

Ramz arabcha "ishora qilmoq" so'zidan olingan. Ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat, vogelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir. Naqsh elementlarining ramziy ma'nolari. Teng tomonli uchburchak tik turgan holati hayotning boshlanishi. Teskari turgan holati esa hayotning oxirini bildiradi.

To'gri to'rtburchak - ishonch.

Romb - ayol, ya'ni yor ramzi serfarzandlik.

Yarim aylana - baxt.

Quyosh - hayot ramzi.

Bulut olov, - g'oliblik ramzi.

Bodom - baxt-iqbol.

Barg - bahorgi uyg'onish.

Zirk guli (gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to'qchilik.

Oygul - baxt-iqbol ramzi.

Olma - munabbat ramzi.

Isirig - yomon ko'zdan asrash ramzi.

Atirgul - go'zallik ramzi.

Sher - mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Bulbul - sadoqat.

Xumo - baxt keltiruvchi qush.

Boshqush - baxtsizlik, vayronalik.

Baliq - mashxurlik ramzi.

Og kabutar - tinchlik.

Oxu - go'zallik, noziklik



Mavzu yuzasidan asvollar.

1. *Naqsh va uning turlarini qanday?*
2. *Naqsh elementlarining nomlanishini ayting?*
3. *Ramziylik nima?*
4. *Naqsh elementlarining ramziy ma'nolarini qanday?*
5. *Bofta qanday naqshlar elementiga kiradi?*
6. *Islimiy naqsh elementlariga, naqshlariga qanday pardozi beriladi?*
7. *Naqqoshlikda gajak va jingalak-islamiy naqsh elementlari qanday holdagi ko'rinishlarga ega?*
8. *Gul elementlari asosan naqsh shakllarining qaysi qismlariga joylashtiriladi?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info


2-Mavzu: Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish.

Reja:


- 1. Boshlang'ich soda naqshlar.***
- 2. Buyum uchun naqsh kompozitsiyasini tuzish.***
- 3. Ranglarning naqqoshlikda tutgan o'rni***

Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari xosil bo'lganidan o'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib, bo'lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini «hayolan» tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o'zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlar, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shuningdek, xotiralari zahirasida qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi. Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bo'laklar asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko'chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha yengillashtirib kelmokda. Shu ko'rsatmalarga muvofiq shakl yasovchi reja–qolip 4\1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlari yakka, qo'sh va bir necha qo'shimcha chiziqlardan iborat bo'lishi mumkin. Patnis ko'rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo'sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo'lishi ham mumkin. Mashqlar davomida chiziqlar harakatining ravonligiga shakl chiziqlarining qiyshiq yoki siniq holatda chizilib qolmasligiga e'tibor qaratiladi. Yakka band yo'lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan bog'lanadi. Endi yuza bo'shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir–biriga bog'lagan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo'yicha xarakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir–birlari bilan yaxlit, uzviy bog'lanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh


namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugatilib yechimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli «Patnis islimi» deb ataladi. Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning



nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi. Naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (sirkul) va boshqa bir qator asboblari kerak bo'ladi. Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tuzilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim.



Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog‘liq. Demak, bir to‘xtamga kelgach xitoy qog‘oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e’tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo‘lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo‘lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin. O‘zbek xalq ustalari qadimdan qo‘llab kelayotgan jamiki



naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir.


Masalan, majnuntol misolida ko'radigan bo'lsak, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyulsada, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishiga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topgan.

Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda xoh o'yishda bo'lsin yoki pardozi berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi. Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsada, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozitsiyasi tuzishda qo'yilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi. Mohiyatan olib qaraganimizda kompozitsiya nima o'zi?

KOMPOZITSIYA - ruscha-lotinchadan so'zdan olingan bo'lib, adabiy asar yoki san'at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati hamda tarkibiy qismlari ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy san'at asari tushuniladi.

Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uyg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Oddiy naqsh namunalarini o'rganishda, o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan naqsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orqali yangi naqsh elementlarini

hosil qilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish maqsadga muvofiqdir. «Har bir insonning o'z ismi bo'lganidek, har bir naqshning o'ziga xos nomlari bo'ladi. Naqshning nomlanishi uning xarakterli o'rni bilan belgilanadi. Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nosi bo'ladi. Har qanday naqsh oddiy elementlarning ma'lum g'oya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o'zaro uyqunligi va muttanosibliigi bilan hosil bo'ladi. Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi» Shuningdek naqsh chizishni barcha qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirib borishda, mavjud yo'l ichidagi




4-gul. «Bargli islimli» naqsh namunasini chizish bosqichi.

o'nta oddiy naqsh namunasini aslidek yoddan chizib o'rganish kerak bo'ladi. Oddiydan murakkablashib boruvchi o'nta yo'l ichidagi naqsh namunalarini taniqli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Ustozlarimizning takidlashlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinatining naqqoshlik bo'limi o'qituvchisi usta Olimjon Qosimjonov va bir oz keyinroq, Jalil Xakimovlar, boshlanqich dars mashg'ulotlarni to'rtta naqsh namunasi yordamida o'rgatar ekanlar. Ayrim taxminlarga ko'ra bu naqsh namunalarini yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning o'zlari yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo'lmish moqir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev oddiy naqsh namunalarining yana qo'shimcha oltita nusxasini yaratib, nomlaganlar. Mavjud o'nta oddiy naqsh namunalarini boshqa o'ymakor ustalar, yoqoch va ganch o'ymakorliklariga oid, o'yish jarayonlariga mos ravishda, qo'shbandli naqsh holatlarida chizganlar. Oddiy naqsh namunalarining nomlanishi va chizilishi tartibi quyidagicha:


- 1–gul «Bodomguli»;
- 2–gul «Yak raftor»;
- 3–gul «Bargli raftor»;
- 4–gul «Bargli islimli»;
- 5–gul «Aylana shukuftali islیمی»;
- 6–gul «Mehrob islیمی»;
- 7–gul «Islimi bafta»;
- 8–gul «Qo'sh mehrobli islیمی»;
- 9–gul «Patnisgul islیمی»;
- 10–gul «Islimi shkufta».

Biz dastlab oddiy naqsh namunalarini katak daftariga bosqichma–bosqich chizishni mashq qilishimiz kerak. Ma'lum tajribaga ega bo'lganimizdan so'ng, mazkur naqshlarni rasm daftariga ikki nusxada qalamda va bo'yash uchun alohida tarzda chizamiz. Oddiy va boshqa naqshlarning mukammal tuzilishi jihatlariga nazar tashlasak, ulardagi shakl yasovchi asosiy yo'l harakatlarini yoki to'ldiruvchi gul, novda elementlarining har qaysisi o'z holicha kompozitsion yechimlardan iborat ekanligini kuzatishimiz mumkin. Misol, «Qo'sh mehrobli islیمی» naqshida mehrob shaklimiz yakka bandli shakl yasovchi vazifasini o'taydi va gul novda,


kurtak elementlari esa naqshning zaminini to'ldirib turadi. Mehrob shakli o'z holicha novda gul bog'lanishlari bilan alohida naqsh tasvirlarini anglatishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan o'nta yo'l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda chizishni mashq qilib ko'ramiz. Bu mashqlarni bajarish uchun katak daftar yoki rasm daftar, qora qalam, chizg'ich va o'chirg'ch kerak bo'ladi. Naqsh o'lchamlariga ahamiyat bergan holda qalamni yengil, bosmasdan chizish kerak. 1–gul. «Bodom guli» ni qalamda katak daftarda quyidagi bosqichda chizamiz. Chizishda ritm va



simmetriyaga rioya qiling. 1–bosqich. Ikki parallel chiziq chizilib, ularning oralig‘i teng bo‘laklarga bo‘linadi. Katak — kvadratlarga diogonal o‘tkaziladi. Bularning hammasi ingichka yordamchi chiziqlar asosida bajariladi. 2–bosqich. Ikki kvadrat oralig‘iga yarim aylana chizib chiqiladi. 3–bosqich. Yarim aylana shakllari pastki tomonlarga ham ishkomp ko‘rinishida chiziladi. 4–bosqich. Ikkala bargning pastki va ustki tomonlaridan kurtaklar chiziladi. Qolgan 9 ta naqsh gullarini shu kabi bosqichlar asosida chizib chiqiladi. Naqshlarni bir necha marotaba takroran nafis va



6–gul. «Mehrob islami» naqsh namunasini chizish bosqichi.



7-gul. «Islimi bafta» naqsh namunasini chizish bosqichi.

ravon chizib o'rganiladi. Tayanch tusunchalar: diqqat, shakl, sirt, nisbat, yakka band, qo'sh band, yaxlit, reyshina, transportir, reysfeder, pargor, ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, dinamik, stilizatsiya, mujassamot, raftor, yak raftor, qo'sh raftor, patnigul, qo'sh mehrob, kurtak, komponent.



Mavzu yuzasidan savollar.

- 1. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalarini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?*
- 2. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalari nechta va ular qanday nomlanadi?*
- 3. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalari chizish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?*
- 4. Naqqoshlikda Kompozitsiya tuzishda qanday komponentlarga amal qilish lozim?*
- 5. O'nta yo'l ichdagi oddiy naqsh namunalari qalamda chizishni mashq qilishda nimalar zarur va chizish qanday amalga oshiriladi?*
- 6. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalari tuzish bosqichlari qanday?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

4. www.tdpu.uz
5. www.ZiyoNet.Uz
6. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info


3-Mavzu: Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini ranglash.

Reja:

- 1. Noqqoshlikda oddiy naqsh namunalarini chizish bosqichlari.***
- 2. Naqshdagi «Bofta» kabi bog'lovchi elementlar.***
- 3. Bo'yash bosqichlarida Garmoniya xosil qilish.***


Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin. Naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir. Rang uyg'unligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o'zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyg'unligini ko'ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo'lmasligini, qaysi ranglar yonma–yon kelsa, rang uyg'unligi paydo bo'lishini bilish kerak. Ranglar uyg'unligi to'g'ri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo'llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo'jizalar yaratadi. Xalq ustalarining ijodiy ishlarini qaysi naqqoshlik maktabiga mansub ekanligini naqsh kompozitsiyasi va rang tuslari orqali tezda aniqlab olish mumkin. Masalan: Xorazm naqshlarida havo rang, yashil tuslarni ko'plab uchratish mumkin. Naqsh elementlari esa spiralsimon islimiy naqshlarni tashkil etadi. Farg'ona uslubi esa kontrast ranglar, ya'ni yashil ko'k, qizil rang tuslarining bir oz to'qroq darajada aralash uyg'unlashuvi bilan xarakterlidir. Toshkent naqshlari och yashil – qavo rang, to'ti yoyi hamda och jigar rang tuslarda tovlanadi. Naqsh elementlarini Yevro'pa bezakchilik tuslariga xos oltinsimon jigar rang koloritlarida turlash usullarini birinchi bo'lib naqqoshlik san'atiga usta Toir To'xtaqo'jaev kiritgan. Mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev o'z ustozlari Jalil Xakimov va Toir To'xtaho'jaevlarni xotirlab shunday deydilar: «Naqqoshlik san'atini sehrgarlik san'atiga qiyosligim keladi. Naqqosh turli rang tuslari orqali naqshdagi jonsiz chiziqlarni kuylata oladi. Ustozlarim Jalil Xakimov va Toir To'xtaqo'jaevning ijodlarini olaylik. Jalil Xakimovning ijodiy uslublarini mumtoz klassik yo'nalish deb olsak, Toir akaning naqshlarida lirikani his qiladi kishi» .

Naqqoshlikda ranglar naqsh tuzilishi va uslublariga xos ravishda tovlanadi. Shuningdek, naqsh ishlanadigan buyum yoki yuzaning maqsad–vazifalari, hajmli, balandligi va kompozitsion yechimlari alohida e'tiborga olinadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida ustalar (ayniqsa bino bezaklari) masofani



1–gul. «Bodom guli» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.

ranglash va pardoqlash bosqichlarini ham hisobga oladilar. Bu esa naqshdagi rang tuslarining teng tarqalishi zamin shakl va gul elementlarining oraliqlaridan yaxshi ko‘rinishiga sabab bo‘ladi. Ma'lumki, naqshda har bir element shakl va rang tuslarining o‘z nomlari, ramziy ma'nolari mavjud. Naqshlarni ranglash va




2–gul. «Yak raftor» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.

pardozlash bilan ularning go‘zalligini, mazmun va ma‘nolari unsiz tovushlar orqali ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar asosan bitta rang koloritiga bo‘ysungan holda turlanadi.

Naqshni ranglash bosqichlari quyidagicha:

1–bosqich. Naqshning zaminini (tagini) ranglash;




3–gul. «Bargli raftor» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.

- 2–bosqich. Naqshdagi shakl oralarini ranglash;
- 3–bosqich. Naqshning gullari, barglari va bandlariga rang berish;
- 4–bosqich. Naqshning shkufta va yo‘l chiziqlarini ranglash;
- 5–bosqich. Naqshga siyohqalam va targ‘il berish;
- 6–bosqich. Naqshning oq bandlari va obisini tortish. Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo‘yamaslikka alohida




4–gul. «Bargli islimli» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.


e'tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir–biri bilan tutashtirilgan holda bo‘yalmasa, siyoh qalamda berilgan pardozi ko‘ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go‘zalligi va chiroyiga putur yetadi. Naqshlarni asosan guash va akvarel bo‘yoqlari yordamida bo‘yash maqsadga muvofiqdir. Ranglarning xilma–xil tuslarini tayyorlashda guashning oq bo‘yog‘i yetakchi vazifani o‘taydi. Naqshni bo‘yash uchun bo‘yoqlar chinni yoki plastmassa idishchalarda tayyorlanadi.




5–gul. «Aylana shukuftali islamiy» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.




6-gul. «Mehrob islimi» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.



7-gul. «Islimi bafta» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.



8-gul. «Qo'sh mehrobli islami» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.



9–gul. «Patnigul islimi» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.



10–gul. «Islimi shkufta» naqsh namunasini ranglash va pardoqlash bosqichi.

Ayniqsa, maxsus chiqarilgan kolerlarni bir biriga qorishtirishda yoqoch kurakchalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda har bir rang tusi uchun alohida yog'och kurakcha qo'llaniladi. Bu o'z navbatida bo'yoqlarni ifloslanib ketishdan saqlaydi. Tayyorlangan bo'yoq judayam suyuq bo'lsa, unda naqsh yuzasi bir tekisda bo'yalmaydi. Guash bo'yog'ini qog'oz sathiga qalin va quyuq surtish mumkin emas. Chunki qalin bo'yoq qavati quriganidan so'ng, yoriladi va ko'chib ketadi. Naqshning zamini - foni uchun rang tayyorlashda uning tusi bir oz to'qroq olinadi. Sababi, to'q rangli zaminda boshqa yengil, ochiq tUSDagi ranglar yanada tiniq va ravshan, go'zal bo'lib ko'rinadi. Naqshning shaklini ifodalovchi ko'rinishlarni ajratib bo'yashda o'rtacha to'qlikdagi yoki ochroq tUSDagi ranglardan foydalaniladi. Naqshdagi «Bofta» kabi bog'lovchi elementlar to'q ranglar yordamida bo'yalsa, gul, g'uncha, barg elementlari esa och ranglarda tuslanadi.

Naqsh namunalarini bo'yashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Garmoniya - grekcha so'zdan olingan bo'lib, munosiblik, bog'liq bo'lish, eng go'zal bog'lanish degan ma'nolarni anglatadi. Faktura - lotincha so'z bo'lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir. Kontrast - fransuzcha so'z bo'lib, keskin farq, farqlanish ma'nosida qo'llaniladi. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin. Naqshni bo'yashdan oldin tayyor bo'yoq oq qog'ozga surtib, sinab ko'riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo'lsagina, u bilan kerakli joylar bo'yab chiqiladi. Bunda naqsh namunasidagi mazkur rang tusi bilan bo'yaladigan qismlarga yetadigan miqdorda bo'yoq tayyorlab olinadi.

Agar bo'yoq yetmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo'yoq tusi boshqacha bo'lib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko'rinishiga putur yetadi. Siyoh qalam - eng nozik qil qalam bo'lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi.

Siyoh so'zi - qora rang degan tushunchani anglatib, qora rangda naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish demakdir. Targ'il - gul, g'uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida ochib berishdir.



Mavzu yuzasidan savollar.

- 1. O'nta yo'l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda chizishni mashq qilishda nimalar zarur va chizish qanday amalga oshiriladi?*
- 2. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalari tuzish bosqichlari qanday?*
- 3. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalari nechta va ular qanday nomlanadi?*
- 4. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalarini chizish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?*
- 5. Naqqoshlikda Kompozitsiya tuzishda qanday komponentlarga amal qilish lozim?*
- 6. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalarini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girih)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.


1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

4-Mavzu: Naqqoshlik san`atiga xos yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini pardoqlash (obi, siyohqalam, targ'il).

Reja:


- 1. Naqsh elementlarining turlari va unung o'ziga xosligi.*
- 2. Naqqoshlikda gulli girih.*
- 3. Yo`l ichidagi naqsh kompozitsiyasini pardoqlash.*

Yuqoridagi mavzularda qayd etilganidek naqqoshlik san`atida asosan ikki turdagi naqsh elementlari qo'llanilib kelinadi. Bular o'simliksimon va geometrik naqshlar ularning har birining o'rni kompozitsiyalar tuzishda o'ziga xosdir. va shakliga ega bo'lgan gullar, barg, novdalarni badiiylashtirib tasvirlash O'simliksimon naqsh elementlari ma'lumki tabiatdagi barcha gul va barglarning tuzilishidan iborat bo'lsa, geometrik naqshlar esa turli geometrik shakllarning o'zaro bog'lanishi va tugunlar hosil qilib takrorlanishidan tashkil topgan. Naqqoshlik san`atining rivojlanish tarixiga razm soladigan bo'lsak, ustalarimiz yaratgan qadimiy naqshu nigorlarda ham bu elementlarni keng qo'llanganligini guvohi bo'lamiz. Ular ijodida davrlar osha bu elementlarning yangi ko'rinishlarini yaratilishi va takomillashib borishi naqqoshlik san`atining kun sayin ravnaq topishi va keng quloq yoyishiga asos bo'lgan. Ayniqsa bu elementlar asosida tuzilgan kompozitsiyalarni qadimiy me'morchiligimizning tashqi qismi hamda ichki bezak ishlarida o'z o'rnida ishlatilganligini ko'ramiz. Naqqoshlikda gulli girih deb




nomlanuvchi naqsh kompozitsiyaning yuzaga kelishi ikkala naqsh turini birini ikkinchisiga qo'shib omuxta qilib ishlash natijasida paydo bo'lgan o'zgacha jimjimador naqshdir. Girihlar bu turda ko'pincha islamiy naqshlarga chegara shakl sifatida xizmat qiladi.



Oddiy naqsh kompozitsiya namunalarini pardoqlash.




1-gul. Bodom islimi







2-gul. Pechaksimom islimi






3- gul. Bargli islimi.






4-gul. Bargli raftor islami







5-gul. Aylana islimi.







6- gul. Mehrob islimi.






7- gul. Bof tali islîmi.



8- gul. Qo'sh mehrob islami.



9-gul. Patnis islami



10- gul. Shkufli islami



Mavzu yuzasidan savollar.

1. *Buyumlarni naqshlashda qanday amaliy bosqichlar bajariladi?*
2. *Buyum naqshlarini ranglash bosqichlarini ayting?*
3. *Yog'och buyumlarini naqshlash uchun qanday materiallardan foydalaniladi?*
4. *Naqqoshlikda qanday bo'yoq turlari ishlatiladi?*
5. *Shpaklyovka qorish texnologiyasini bilasizmi?*
6. *O'zbek milliy uylarini naqshlashning o'ziga xos xususiyatlarini ayting?*
7. *Naqsh namunalarining nomlarini bilasizmi?*
8. *O'zbek milliy uylarining naqshlanish tartibi qanday?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

5-Mavzu: Islimiy naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Reja:

- 1. Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va ularga pardoz berish tartibi.*
- 2. Naqsh bo'yashda ranglardan keng foydalanish, pardoqlash turlari.*

Oddiy naqsh na'munalarini bo'yash va ularga pardoz berish. Naqshdagi gul va barg, novda elementlarini turlash.

1- bosqich. Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va pardoqlash ishlari naqsh kompozitsiyaning qalamda bajarilgan eskiz ko'rinishi yuzasiga tanlangan rang gammasida dastlabki ishlov naqsh zaminini bo'yashdan boshlanadi.

Qo'yilgan bo'yoq qatlamida har xil dog'larning paydo bo'lishini oldini olish uchun kolerlar me'yoridan o'rtacha quyuvlikda tayyorlanishi lozim. Bo'yoqqa botirilgan mo'yqalam bilan yuza bo'ylab rangni ohista yengil harakatlantirib yoyiladi. Avvalo naqsh yuzasining katta qismlari va keyin esa barg, gul va boshqa mayda bo'laklar bo'yalib chiqiladi. Naqshning jozibali ko'rinishi tanlangan ranglar dastasiga bog'liq. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin.

Naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir. Rang uyg'unligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o'zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyg'unligini ko'ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo'lmasligini, qaysi ranglar yonma-yon kelsa, rang uyg'unligi paydo bo'lishini bilish kerak. Ranglar uyg'unligi to'g'ri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo'llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo'jizalar yaratadi.

2- bosqich. Naqsh chiziqlari ustidan elementlar va bo'laklarni birmabir chegaralash uchun qo'yilgan ranglarga mos to'q bo'yoq yordamida siyoh qalam amalga oshiriladi. Siyoh qalamni guashli yuzalar uchun

guash yoki akvarel bo'yog'ida tortish tavsiya qilinadi. Mo'yqalamni yurguzganda to'lqinlantirmay tekis tortish uchun imkon qadar qo'lni tayanchga qo'yib barmoqlar harakati bilan bajariladi. Yuzadan ko'tarilib turish uchun qo'lni ostiga maxsustaxtacha qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-bosqich. Naqsh siyoh qalamdan chiqqanidan so'ng unga kerakli pardoz beriladi. Bu esa naqshni yanada jilosini oshiradi. Pardozlar ikki xil usulda targ'il (taroq) yoki yedirma qilib beriladi.

Rang berilgan yuzaga mos rangda gul qalam vositasida targ'il parallel chiziqlarning tartibli takrorlanishi bilan bajariladi. Yedirma pardoz esa bo'yoqni to'qdan ochga yedirish orqali ishlanadi bu ham o'ziga xos ko'rinishga ega. Yuzalarga pardozlar guash hamda akril yoki akvarel bo'yoqlarida beriladi.

4-bosqich. Obi tortish, suv toritish degan mazmunda naqsh chetlariga oq rangda chiziq chizish bilan ifodalandi. Naqshdagi shakllarning ayrim chiziq va bandlari ustidan oq rang yurgizish bilan ularga jilo beriladi. Bu amalni bajarishda suvli yoki moyli bo'yoqning oq rangidan foydalaniladi. Bu usulni qadimgi xalq ustalari ham o'z naqsh kompozitsiyalarida qo'llab kelishgan.

Pardoz berishga misollar;




6-Mavzu: Girih, gulli girih naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Reja:



1. *Girih va gulli girih kompozitsiyalarni chizish.*
2. *Girih kompozitsiyalarni chizish talablari.*
3. *Girih naqshlarga pardoz berish bosqichlari.*

Girih va gulli girih kompozitsiyalarni chizish. Oddiy girih namunalaridan nusxa ko'chirish yoki ularni mustaqil mashq qilish avvalambor geometrik yasashlarni mashq qilishdan boshlanadi. Chunki bitta girih kompozitsiyaning ichida ham bir necha shakl mujassam bo'ladi. Bularni yasash uchun esa malaka talab etiladi. Geometrik yasashlarning birinchi mashqi aylanani sirkul yordamida teng bo'laklarga bo'lish orqali ko'pburchakli shakllarni yasaymiz. Buning uchun qog'oz yuzasiga bir xil diametrdagi aylanalarni chizib olamiz. Geometrik chizmachilik kursida olgan bilimlarimizga tayanib aylanalarni muntaazam ko'pburchaklarga (3, 4, 5, 6, 8, 10, 12 va b.) bo'lishni mashq qilamiz. Chunki girih naqshlarida bu shakllar har doim qo'llaniladi.


1- bosqich. Girih kompozitsiyalarni chizish bosqichlari asosan yuzaning o'lchami hisobga olinadi va shunga ko'ra kompozitsiya markazidagi shaklni atrofdagi boshqa shakllar bilan bog'lash geometrik kesishuv va matematik o'lchovlar asosida amalga oshiriladi. Bu amallar chizma asboblardan foydalanib yordamchi chiziqlar cizish bilan bajariladi.




2- bosqich. Qora qalamda chizilgan girih naqsh kompozitsiya zamini tanlangan rang tusida shakllar farqlanib alohida qismlarga ajratilib bo'yaladi. Boshqa naqshlar singari girih naqshlarga ham pardoz beriladi, siyoh qalam qilinadi. Geometrik yasashlarning birinchi mashqi aylanani sirkul yordamida teng bo'laklarga bo'lish orqali ko'pburchakli shakllarni yasaymiz. Rasmdagi oddiy girih kompozitsiyada chizib olingan to'g'ri burchakli shakllarni biri ikkinchisi bilan tutashtirish orqali ma'lum bir ko'rinishga ega bo'lgan girih yuzaga keladi. Dastlab katakchalar chizib olinadi tanlangan shaklni chiqarish uchun kerakli chiziqlar to'qlashtirilib chiqiladi va bo'yash oldidan barcha yordamchi chiziqlar bo'yoqqa aralashib ketmaslik uchun o'chiriladi.



Sakkiz burchakli girih komozitsiyani tuzish uchun al‘bom qog‘ozi yuzasiga to‘liq joylashadigan qilib aylana chiziladi. Sirkul yordamida aylana yoyi teng sakkiz bo‘lakka bo‘linadi topilgan burchaklar aylana markazi bilan birlashtiriladi. Shaklning bir qismida biz rejalashtirgan naqshning barcha yordamchi chiziqlari o‘tkaziladi. Yordamchi chiziqlar juda ham to‘q bo‘lishi tavsiya etilmaydi chunki ranga o‘tishdan oldin chiziqlarning ba‘zilari o‘chiriladi.






Girih kompozitsiyalardan namunalar




Girih kompozitsiyalardan namunalar



Girih kompozitsiyasini ishlash mashg'ulotida;

Girih kompozitsiyalar tuzishni mashq qilish uchun dastavval chizmachilik asboblardan to'g'ri foydalana olish malakasiga ega bo'lish shart. Sirkil, chizg'ich turli markadagi qalamlar bilan ishlashni bilish talab etiladi. Chizma asboblari vositasida turli diametrdagi aylanalarni bo'laklarga bo'lish orqali geometrik shakllar (kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, olti burchak, sakkiz burchak va hakoza.) yasaladi.





Mavzu yuzasidan savollar.

1. *Yo'l ichida naqsh chizish bosqichlari qanday?*
2. *Kvadrat ichida naqsh chizishda asosan qanday naqsh elementlari foydalaniladi?*
3. *Ko'pburchaklar ichida naqsh chizishda qo'yiladigan talablar?*
4. *Rangshunoslik texnologiyasidan foydalanish usullarini aytib bering?*
5. *Rang turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari aytib bering?*
6. *Naqshlarni pardoqlash turlarini sanab bering?*
7. *Naqoshlikda Obi tortish, suv toritish deganda nimani tushunasiz?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

7-Mavzu: Madohil naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Reja:

- 1. Kompozitsiyada ritm va kompozitsion markaz.***
- 2. Naqqoshlikda fazoviy kenglikni yaratish.***

Naqqoshlik kompozitsiyalari haqida tushuncha *Kompozitsiya* -atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, tuzilish, birlashish, bog'lanish ma'nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor g'oyasini tomoshabinga aniq, tez yetib borishga xizmat qiladi. Bundan tashqari asardagi detallarni bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish degan tushunchalarni ham beradi.

Amaliy san'atda kompozitsiya ishlash ritm, simmetriya, asimmetriya komponovka davriy takrorlanish markaz topish bezak yoki tasvirning dinamikligi, tabiiyligi chiroyliligi pardozlarning va ranglarning uyg'unligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Kompozitsiya orqali musavvir yoki naqqosh asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir tasviriy san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Hamma vaqt kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.

Kompozitsiya tuzishning o'ziga xos qonun-qoidalari, vosita va uslublari mavjud. Tasviriy san'atdagi kabi amaliy bezak san'atining har bir turida ham kompozitsiya qoidalariga rioya qilinadi. Tasviriy san'atda dekorativ kompozitsiya tushunchasi asosan rang tasvir va haykaltaroshlikda qo'llaniladigan badiiy bezak ishlarini ifodalaydi. Ular freska, mozaika, vitraj, istirohat bog'lari haykaltaroshligi, mayda plastika, me'morchilikda esa binolarning rel'efli bezaklarida frizlar shaklida keng qo'llaniladi. Har bir naqsh kompozitsiya o'ziga xos tuzilish va ko'rinishga ega bo'ladi. Ustalarning mohirligi shundaki ular yaratgan kompozitsiyaning mukammalligi va tanlangan ranglarning bir-biriga mos qilib yonma –yon qo'yilishi, ishlatilayotgan elementlarning to'g'ri tanlanganligida ko'rinadi. Naqsh kompozitsiyalar turli shakllar bilan yuzasiga moslab tuziladi va nomlanadi. Ranglar gammasi tanlanib ularga sifatli ishlov beriladi. Amaliy san'at asarlaridagi

kompozitsiyani tuzish usullarini astoydil egallash bo'lg'usi naqqosh usta uchun juda muhimdir. Naqqoshlik kompozitsiyasi deyilganda birinchi galda bir butunlikka ega bo'lgan naqsh elementlarining o'zaro bog'lanishi, kompozitsiyadagi qo'llanilgan elementlarning asar go'yasiga mosligi, simmetrikligi, naqsh kompozitsiyada yangliklarning bo'lishi hamda ranglar gammasining o'zaro mosligi, tomoshabinboblighi kabilar nazarda tutiladi.

Kompozitsiya o'ziga xos ritm, kompozision markaz ega bo'lishi, elementlarning simmetrik yoki assimetrik joylashuvi va kompozitsiyada harakat, turg'unlik, planlilik, parallellik kabilar nazarda tutiladi.

Kompozitsiya bezaklarni mahobatli tarzda ifodalash, yuzaga mos tasvirlash, element va naqsh bo'laklarini to'g'ri taqsimlash kabi uslublarni o'z ichiga oladi. Kompozitsiyani vositalari deb kompozitsiyaning jozibali va chiroyli chiqishida ishlatiladigan rangli bo'yoqlar, rang gammalari hamda mavjud naqsh elementlarining turlaridan unumli foydalanish va boshqalar tushuniladi.

Naqshning oddiy shakldagi yuzadan tortib murakkab bo'lgan keng yuzalardagi bezaklari ham kompozitsiya mazmuniga ega bo'lmog'i shart. Chunki har bir naqsh kompozitsiya mukammal asar maqomiga ega, shuning uchun ham



ustalarimiz o'zlarining ijodiy faoliyatida yangilik qilishga, elementlar dastasini kashf qilish uchun ter to'kishgan.

Naqsh kompozitsiyalarda ranglarning ahamiyati juda muhim. Chunki har qanday tugallangan naqsh kompozitsiyani jozibasini tanlangan rang gammasiga bog'liq. Naqshda ham xuddi rang tasvirdagi kabi tasvirni bir tusga bo'ysindirib ishlash va shunga mos kollerlar tayyorlash malakasiga ega bo'lish ijodkorning mahoratini belgilaydi.

Kompozitsiyalarning turli ko'rinishlarda bo'lishi ulardagi elementlarni o'z o'rnida qo'llanishi, kompozitsiyadagi naqsh elementlarining o'zaro o'xshashligi hisobga olinadi.

Girih turlari: Girih-forscha, chigal, tugun degan ma'noni anglatadi. Handasiy deb nomlangan murakkab naqsh turi muayyan taqsimlarga ega bo'lib, har bir taqsim tuzilishiga ko'ra o'ziga xos ko'rinishiga egadir. Girih O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh turi bo'lib, XII-XVI asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda taraqqiy etgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. O'rta Osiyoda esa girih kompozitsiyalardan bezatish ishlarida boshqa mamlakatlarga qaraganda eng ko'p foydalanilgan. O'rta Osiyoda



giriHLarning juda ko'p turi mavjud. Bu giriHLarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag'igacha bezatilganligining guvohi bo'lamiz. Albatta, biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha zamon uchun giriHni chizmachilik asboblari matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu giriHni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo'lganlar. Arxitektura yodgorliklarida naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu giriH ishlash sirlarini toppish maqsadida ko'p izlanishlar qildilar, lekin bu jumboqlardan to'la ma'lumotlar olish qiyin bo'lgan.

Chunki o'sha vaqtdagi bu geometric naqshni sir deb bilib qog'ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Vaqt o'tishi bilan ularni chizish uslublari unutib yuborilgan. Shu sababli hozirgi kunda ko'pgina ustalarimiz giriHni yechimini topishga qiynaladilar. Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy 940-998 o'zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to'g'risida yozib qoldirgan. Bularda giriHni ba'zi oson yo'llarini tushuntirib o'tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi tog'risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o'zining asarlarida giriHni tayyorlash usullarini ko'rsatib o'tsa-da, bizga giriH yechimi to'g'risidagi ma'lumotlar berilmagan.

U o'zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo'lishning eng sodda oson yo'llarni keltiradiki, bu o'sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas, biz uchun noma'lum.

XVII asrga kelib, giriH san'ati juda kam ishlatiladigan bo'ldi. GiriH chizish murakkab bo'lgani uchun hamma ustalar ham chiza olmaganlar. O'sha davrlarda giriH naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo'lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo'lgan.

U yangi giriHLarni osonlik bilan chiza olgan hamda o'z o'rnida ustalik bilan qo'llay olgan. U o'z davrida giriHni piri hisoblangan, uni giriHkor usta deb hisoblanganlar shuning uchun ham giriH chiza olmagan ustalarni yetuk usta deyishmagan.



Mavzu yuzasidan savollar.

- 1. Naqsh turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering?*
- 2. Turli shakl yuzalariga naqsh kompozitsiya chizish, ranglash va pardoqlash ishlari haqida tushuncha bering?*
- 3. Kompozitsiya tuzish va kompozitsiya qonun qoidalarini ayting?*
- 4. O'simliksimon naqsh kompozitsiyalarni tuzish bosqichlari haqida tushuncha bering?*
- 5. Turg'unlik, planlilik, parallellik tushunchalarini ta'riflang?*
- 6. Simmetriya va assimetriyaning naqqoshlikdagi ahamiyati?*
- 7. Naqsh kompozitsiyalardan nusxa ko'chirish qanday amalga oshiriladi?*
- 8. Kompozitsiyadagi bezaklarini pardoqlash qanday amalga oshiriladi ?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.Ziyonet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

8-Mavzu: Namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Reja:

- 1. Namoyon naqsh kompozitsiyalar.***
- 2. Namoyon naqsh kompozitsiyasida naqsh elementlarini ishtiroki.***
- 3. Garih va islmiy naqsh kompozitsiyalari.***

Namoyon naqsh kompozitsiyalar; Namoyon naqsh kompozitsiya eskizini chizish. Namoyon - forsha so'zdan olingan bo'lib, kurinish manzara ma'nosini anglatadi. Ruscha panno. Namoyon mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon naqsh kompozitsiyasi voqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks ettiradi. Unda chamanzor, oqar suvlar, ko'l, yo'l va boshqa shartli tasvirlanadi. Namoyon naqsh kompozitsiyasi tevarak atrof zanjirlari ruta (hoshiya naqshi) bilan o'raladi. Namoyon hech nimaga ulanmaydigan mustaqil kompozitsiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Namoyon simmetrik va asimmetrik tuzilishga ega bo'ladi. Namoyon naqshi o'zbek milliy me'morchiligida binolarning ichki qismlarida xona devorlarini badiiy bezatishda qo'llaniladigan yirik va murakkab bo'lgan naqsh kompozitsiya hisoblanadi. Asosan uning o'simliksimon turi mehrob ko'rinishidagi shakllar ichiga joylashtirilib chiziladi. Uning bir markazdan tarqalib butun davrani to'ldirib, yoyilib manzara hosil qilishi bilan xususiyatlidir. Namoyonda ham boshqa naqsh kompozitsiyalar qatori mavjud bo'lgan gul va barg, novda elementlari qo'llaniladi. Rang berish bosqichlari ham har doimgidek zaminni bo'yashdan boshlanadi, pardoz berish va obi tortish bilan yakunlanadi. U murakkab naqsh turiga kirib uning o'simliksimon, geometrik, gulli garih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon islmiy naqshdan iborat bulsa, naqqosh naqshning band va tanoblarini darajalarga bo'lib chiqadi, birinchi darajali naqsh chiziqlariga alohida ahamiyat beradi. Garih bilan islmiy aralashgan namoyonlarda garih hamisha asosiy islmiy tuldiruvchi bo'ladi; Islmiy hech qachon garihni bosib o'tmaydi. Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo'lsa, uni ham asosiy, ham tuldiruvchi girihlarga bulish mumkin, ya'ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimmetrik tuzilgan bo'ladi. Har bir naqqoshlik maktabida

namoyon naqsh kompozitsiyalari turlicha shaklda va o'ziga xos uslubda ishlanadi. Xiva naqqoshlari manzarani aks ettirishga unchalik ahamiyat bermaydilar, asosiy e'tiborni dinamikaga qaratadilar, gul barg elementlari kam harakat- mavj ko'proq ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga bandlar bir-biri bilan spiralsimon ulab tasvirlash muhim ahamiyatga ega: Toshkent namoyon kompozitsiyalarida o'simlik va gullarning ko'pligi bilan, Farg'ona namoyon naqsh kompozitsiyalarida esa tabiatdagi gul, gul barg, meva va boshqalarni to'gridan to'g'ri tasvirlash turlari bir-biridan farq qiladi. Namoyon so'zi - ko'rinish, tugallangan degan ma'noni bildiradi. Xalq amaliy san'atida namoyon naqsh namunalaridan xalq ustalari keng foydalanib keladilar. Namoyon naqsh kompozitsiyalarida tabiat manzaralarining go'zal tasvirlari, yuqoriga intilib o'sayotgan o'simliklar dunyosining nafis ko'rinishlari aks ettiriladi. Bu kabi kompozitsiyalar tasvirida, ko'za yoki gultuvakda barq urib o'sayotgan gullar, majnuntol, anor, uzum singari stillashtirilgan o'simliklarning elementlari diqqatga sazovor. Namoyon naqsh kompozitsiyalari asosida chorsi, palak, islimi, murakkab, girih, pushak islimi, chor kunj islimi kabi naqsh namunalari ham chizilib kelingan. Namoyonning asosiy qismini tanob deb ataluvchi shakl yo'nalishi egallaydi. Tanob naqsh kompozitsiyasining asosiy novdasi hisoblanib, undan gul va novda elementlari o'sib chiqmaydi. Novda gul, barg va shu kabi naqsh elementlarini omuxta hamda alohida ko'rinishni tashkil etadi. Namoyon naqshlarida murakkab tematik ramziylikka asoslangan naqsh elementlaridan keng foydalaniladi. Namoyon naqshlari ma'lum bir tarixiy sana yoki tavallud va qutlov mazmunida ishlanilishi mumkin. Ramziylikka asoslangan tematik pannolarda davlat gerbi tasviri, paxta, bug'doy, sher, baliq, tovus shakli elementlari ham aks etadi. Bu kabi naqsh elementlari tabiiy ko'rinishdan stillashtirib olingan eng sodda tasvirdagi chizgilaridir. Namoyon naqshlarini girih, mehrob, oval, to'g'ri to'rtburchak ko'rinishlarida ham tasvirlanadi. Namoyon kompozitsiyalari naqqoshlik, ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi san'atlarida asosiy o'rinlardan birini egallab keladi. Namoyon naqsh namunalarini chizish bosqichlari: Naqshlanuvchi yuzaning aniq o'lchamini olish; Namoyonga shakl chizish; Naqshning tanob

shaklini chizish; Novda gul, barg va shu kabi naqsh elementlarining shakl bo'yicha joylashtirish va hokazo. Hosil bo'lgan namoyon naqsh kompozitsiyasini axtasini tayyorlab, kerakli yuza sathiga hoka yordamida tushiriladi. Kompozitsiya rang turlari bilan turlanib siyoh qalam, targ'il va yoki yedirma usulida pardoatlanadi. Namoyon tugal ko'rinishidagi mustaqil naqsh kompozitsiyadir. Namoyon naqsh kompozitsiyasi voqeylikni umumlashgan tasviriy obrazini shartli aks ettiradi.

Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning islamiy, handasiy va ramziy turlari mavjud. Namoyon naqshlari ham band va tanob elementlaridan tashkil topib, kompozitsiya tuzilishida asosiy va to'ldiruvchi rolini o'ynaydi. Namoyon faqat girihdan ham tashkil topishi mumkin. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo'ladi. Namoyon naqsh kompozitsiya tuzilishlari har bir vohada o'ziga xosligi bilan xarakterli. Namoyonning guldasta namoyon, anor namoyon, majnuntol namoyon, mehrobli namoyon, to'p-gul namoyon, gulsafsar, chorsi namoyon va boshqa juda ko'p atamalari bor. Bu nomlar bilan atalishining boisi shundaki nomoyondagi ishtirok etayotgan naqsh elementlarining turlaridan kelib chiqib shunday ataladi. Namoyon naqsh kompozitsiyalarni taniqli naqqosh ustalar ijodida ko'plab uchratamiz. Misol uchun naqqosh M. To'rayev o'z ijodida ko'plab namoyon kompozitsiyalar tuzishga muvaffaq bo'lgan.

Yuqoridagi namoyon naqsh kompozitsiyalar ko'rib turganingizdek turli



naqsh elementlarini o'z o'rnida birlashtirib ma'lum ko'rinishdagi bezakli manzarani tashkil qilgan. Bir markazdan yuqorilab o'sib boruvchi elementlar dastasi bir-biri bilan shunday bog'lanki birortasi ortiqcha ishlatilmagan yoki kamlik qilmagan bu ham naqqoshning mahorati va o'tkir didliligidan dalolat beradi. Bu kabi namoyon kompozitsiyalar xona va inshootlar ichki qismidagi yirik yuzalarga moslab tuziladi chunki kuzatuvchi ma'lum masofadan erkin kuzata olishligi hisobga olinadi.



Mavzu yuzasidan savollar.

1. *Namoyon naqsh kompozitsiyasi deb qanday naqshlarga aytiladi?*
2. *Namoyon va uning turlari haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Namoyon kompozitsiyalar yaratgan naqqosh ustalardan kimlarni bilasiz?*
4. *Namoyon naqsh kompozitsiyani ranglash va pardozlash bosqichlari qanday olib boriladi?*
5. *Namoyon so'zi nimani anglatadi?*
6. *Namoyon naqshining qanday turlari mavjud?*
7. *Namoyon naqshlarining chizish bosqichlari qanday?*
8. *Namoyon naqsh kompozitsiyalarining qanday nomlari mavjud?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

9-Mavzu: Murakkab naqshli kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash.

Reja:

- 1. Turli shakl yuzalariga naqsh ishlash.*
- 2. Yuzaga o'lcham asosida naqsh chizib olish va naqshni joylashtirish.*

Turli shakl yuzalariga naqsh kompozitsiyasi chizish. Turmushda foydalaniladigan har bir buyum o'ziga xos geometrik shakllardan tarkib topgan shunga ko'ra naqsh kompozitsiyalar ham ma'lum bir shakl ichida tuziladi. Shuning uchun ham biz dastlabki o'quv mashg'ulotlarida geometrik shakllar yuzasiga soddaroq ko'rinishga ega bo'lgan naqsh kompozitsiyalar chizishni mashq qilishdan boshlaymiz. Ular yo'l ichida, kvadrat, uchburchak, doira va ko'pburchaklar ichida naqsh kompozitsiya tuzish kabi mavzularda bajariladi. Buning uchun chizg'ich, sirkul va boshqa jihozlarni yaxshi ishlata olish malakasiga ega bo'lish lozim. Chunki naqshlarning aksariyati yordamchi chiziqlar asosida tuziladi.

Yo'l ichidagi naqshlar odatda davom etuvchi hoshiya naqshi hisoblanadi. Bu naqshni chizish uchun avval tanlangan o'lchamdagi yo'l, to'g'ri to'tburchak






chizib olinadi naqshni davom etishi rejalashtirilib taqsimlarga ajratilib naqsh chiziladi. Kvadrat o'lcham asosida chizib olinadi va naqshni joylashishiga qarab bo'laklarga bo'linadi, kvadrat ichidagi naqshlar tugallangan bo'ladi, chunki naqsh ana shunday o'lchamdagi yuzalarga moslab eskiz qilinadi. Uchburchak naqshi ham boshqa naqshlar singari yuzaga mo'ljallab tuziladi, agar yo'l naqshiga ulanishi lozim bo'lsa burchakdagi naqsh unga o'xshash elementlar va shakllardan iborat bo'lishi kerak aks holda mos kelmaydi. Doira ichidagi naqsh ko'p hollarda yuzalarning o'rtasiga moslab chiziladi. Aylana kerakli o'lchamdagi diametrda chizib olinadi va uning yuzasiga naqsh kompozitsiya qilish uchun yuqoridagi kabi taqsimlar bo'ylab naqsh chiziladi. Dastlabki mashqlarni oddiy naqsh elementlaridan tashkil topgan naqsh kompozitsiyani chizishdan boshlash tavsiya etiladi. Har bir shakl ichida chizilayotgan naqshlarning simmetrik holati saqlanishi qo'llaniladigan elementlarning shaklga mosligi, ularni bir me'yorda o'sib borishi va o'zaro bog'lanishi hisobga olinishi muhimdir. Naqshlarning asosiy chegarasi uni bog'lab turuvchi shakl chiziqlarining turli fugalari bo'lishi kompozitsiyalarning rang barangligini oshiradi va ularni yuzalarga moslash uchun qulaylik tug'diradi.

Yuzalarga qarab naqsh tanlanadi va kompozitsiya eskizi bajariladi. Dastlab eskizlarga rang gammalari tanlanib bo'yoqlar sinab ko'riladi.



Naqshlar bundan oldingi mashg'ulotlarda o'rgangan barg, gul, novda kabi elementlardan shaklga mos qilib chiziladi. Yuqorida bir qismi toliq ishlangan bir qismi esa boshlang'ich ko'rinishdagi turli shakllar yuzasiga naqsh chizish bosqichi keltirilgan. Namuna sifatida ranglash, pardoz berish obi tortish kabi amallarni bajarishni o'zlashtirish mumkin. Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar. Turli shakllarga naqsh kompozitsiyalarni chizishni mustaqil mashq qilish uchun avvalambor geometrik shakllarni yuzaga to'g'ri joylashtirish va ularning ichki qismini naqshlar bilan bezash uchun to'g'ri taqsimlarga bo'lish va ajratish lozim. Har bir taqsimning o'ziga mos naqsh elementlari kiritiladi.





Mavzu yuzasidan savollar.

1. *Buyum yuzasiga naqshni tushurish bosqichlari qanday?*
2. *Kichik ko'rinisdagi naqsh kompozitsiyalarni tayyorlash bosqichlari qanday?*
3. *Naqshlangan buyumlarga ishlov berish yo'llari?*
4. *Naqsh elementlarining ramziy ma'nolarini qanday?*
5. *Bofta qanday naqshlar elementiga kiradi?*
6. *Islimiy naqsh elementlariga, naqshlariga qanday pardoz beriladi?*
7. *Naqqoshlikda gajak va jingalak-islimiy naqsh elementlari qanday holdagi ko'rinishlarga ega?*
8. *Gul elementlari asosan naqsh shakllarining qaysi qismlariga joylashtiriladi?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (girihi)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b.
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

10-Mavzu: Hajmli va sovg'a buyumlarini naqshlash.

Reja:

- 1. Buyum yuzasiga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish***
- 2. Naqshlarni kolorit asosida ranglash va pardozlash.***
- 3. Axtada ishlash jarayoni.***

Sodda shaklli buyumlar yuzasiga naqsh kompozitsiya chizish.

1-bosqich. Buyumga mos naqsh kompozitsiya eskizini chizish. Har bir buyum kichik yoki katta hajmda bo'lishidan qat'i nazar o'ziga xos tuzilishga ega va uning bir necha tomonlari bo'ladi. Buyumning mana shu jihatlari hisobga olinib uning o'lchamiga mos keladigan qilib naqsh tanlanadi va eskiz qilinadi. Bu tayyorgarlik esa bezakning bejirim bo'lishini ta'minlaydi. Sodda yog'och buyumlarni naqshlashni o'quv mashg'ulotlarida bajarish uchun buyumlarni ma'lum o'lchamda tayyorlab yasab olinadi.

Quyida turli ko'rinishdagi shkatulkalarning yasash texnologiyasi berilgan. Dastlab chizma loyiha bo'yicha qutichalarning har bir tomoni fanera yoki DVPdan qirqib olinadi va o'zaro yelim bilan biriktiriladi. Qutichalar yuzasi maxsus gurunt bilan yopiladi va silliqlanadi. Har bir buyumning yuqori, pastki va yon tomonlari bo'ladi. Ularning har birining yuzasi naqshlanishi uchun alohida eskizlar qilinadi. Bu eskizlardagi naqshlar bir-biriga mos kelishi elementlar esa takrorlanishi va to'ldirilishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa o'simliksimon va geometrik elementlar qatorini bexato chizishni o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Axta yordamida tushirilgan naqshning zamini tanlangan rang gammasida ohista bo'yalib, pardozgacha bo'lgan rang berish bosqichi amalga oshiriladi. Shundan so'ng siyoh qalam qilish amali bajariladi va pardoz beriladi. Bezak ishi tugatilgandan keyin yuzalar tiniq lok bilan qoplanadi. Bir marotaba lok surilgandan so'ng quritilib qum qog'oz yordamida silliqlanadi va tekislangan shkatulka yuzasi yana loklanadi va quritiladi. Bu bosqich buyum shaffof, yaltiroq holatga kelgunicha shu tariqa qaytariladi va ishlov beriladi. Turli shakllarga ega bo'lgan qutichalarning yasashini ko'rib chiqamiz. Qutichni yasashda kerak bo'ladigan tamonlar mayda tishli arra(lobzik) yordamida qirqib olinadi, yelimlab yaxshi biriktirilishi uchun tiskka

qistiriladi. Burchaklarni a-rasmda ko'rsatilganidek biri ikkinchisiga jips kiradigan qilib kovakchalar o'yiladi.

Buyumlar kichik hajmda bo'lganligi uchun naqsh chizish ancha murakkab bo'lib ijodkordan ko'proq mehnat talab qiladi. Chunki naqshni qanchalik nafis va nozik bo'lishi uchun sinchikovlik, amallarni etyotkorlik bilan bajarish, mo'yqalamni yurgizishda esa o'ta noziklik bilan ishlash lozim. Aksincha naqshdagi parдоз chiziqlari o'z nafisligini yo'qotadi. Shuning uchun ham o'z nafisligi bilan bu mayda buyumlar tomoshabinni zo'r qiziqish bilan o'ziga jalb etadi. Jimjimador bu bezaklardagi naqsh elementlariga rang tanlashning ham ahamiyati katta, buning uchun rangshunoslik texnologiyasidan tushunchaga ega bo'lish, rang gammalari tanlash va kolerlar tayyorlashni yaxshi bilish zarur.

Naqshlardan tashqari erkin mavzuda yuzalarga miniatyura tasvirlarini ham bezaklar bilan birgalikda omuxta qilib kiritish mumkin, bu esa asarning yanda jozibasini oshiradi. Bu buyumlar kichik hajmda bo'lishiga qaramay xaridorgirligi bezakdorligi bilan boshqa buyumlarga tenglasha oladi.



11-Mavzu: Buyum yuzasiga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish, kolorit asosida ranglash, pardoqlash. Buyumni loklash.

Reja:

- 1. Buyumga mos naqsh kompozitsiya eskizini shizish.*
- 2. Naqsh kompozitsiya zaminini tanlangan ranglarda bo'yash.*
- 3. Siyohqalam va obi tortish gul va barg elementlariga pardoq berish*

1-bosqich. Buyumga mos naqsh kompozitsiya eskizini shizish.

Buyum belgilangan o'lchamda yasab bo'lingandan so'ng uning yuzalariga mos keladigan o'lchamdagi qog'ozlarga naqsh kompozitsiya variantlarining eskizlari chiziladi. Eskizdagi ma'qul naqshga sinab ko'rish maqsadida bir necha rang gammalarida ma'lum qismlari bo'yalib ko'riladi. Qaysiki ma'qul bo'lgan variant yoki oldindan tanlangan rang gammasi bilan dastlabki bo'yash ishlari tashkil qilinadi. Yuqorida aytib o'tganimiz kabi Buyum yuzasi talabdagi aniqlikgacha silliqalanib tayyor qilinadi. Shundan so'ng kal'ka (ulgi) orqali naqsh yuzaga tushiriladi va zaminni birinchi bosqichdagi rangi beriladi .

2- bosqich Naqsh kompozitsiya zaminini tanlangan ranglarda bo'yash.

Olachipor bo'lmasligi uchun rang to'yinganligiga erishish uchun koler suyuq yoki quyuc bo'lmasdan balki me'yordagidek aralashma hosil qilishi shart. Dastlab



kompozitsiya zaminining yirik qismlari mos ravishda ranglanadi. So'ngra esa mayda barg, gul, bofta, shkufta elementlarining rangi beriladi.

3- bosqich. Siyohqalam va obi tortish gul va barg elementlariga parдоз berish.

Yuzaga mos qilib naqsh zaminiga rang berilgandan keyin. Berilgan bo'yoq yuzasi yaxshi qurigandan so'ng, naqshdagi barcha qismlar naqsh elementlari barg, gul va novdalardan tortib boshqa belgilarning atrof chizig'i (konturi) ustidan zamin rangiga mos kelgan to'q rangli bo'yoq bilan siyoh qalam qilinadi. Shu tariqa zamindagi qismlar chegaralanib bir biridan ajratiladi. Undan keyin har bir parдоз talab qilinadigan naqsh elementiga kerakli yo'nalishdagi parдоз targ'il yoki yedirma parдоз beriladi. Parдозning ikki xil turi ko'p ishlatiladi bu esa yedirma va targ'il tortish amalga oshiriladi. O'z o'zidan ma'lumki targ'il (taroq) xuddi taroqning tishlariga o'xshash parallel, uchli mo'yqalam shakliga mos ciziqlardan iborat. Yedirma parдоз turini qo'llaganda esa siyohni to'qdan ochga nisbatan o'tishi-yedirilishini yasaydi. Yog'ochdan yasalgan buyumlar (xontaxta, kursi, toshoyna, shkaf)ni naqshlashda turli nomerlardagi yumshoq yungli mola, obi, siyoq Qalam kabi mo'yqalamlardan unumli foydalaniladi. Bo'yoqlarning qora, qizil, to'q ko'k, to'q yashil, jigar rang kabi to'qroq tuslari naqshga parдоз berishda ishlatiladi. Buyumlar naqshlanganidan so'ng ularning yuzasiga tuniq shaffob lak surkaladi. Yog'och buyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli laklardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yoq va kanifoldan tayyorlangan. Toshkent naqqoshlaridan Olimjon Qosimjonovning aytishiga ko'ra, fabrika laki ishlab chiqarilgunga qadar, ustalar egar moyil deb atalgan

lakni ishlatganlar. Bu lakning aralashmasi yelim (tok o'simliklarining suvi), kunjut moyi va kanifol bo'lgan. Egar moyil bo'yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yuzani darz ketishidan, yemirilishidan saqlagan. Yog'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo'ladi. Jilvir qoqoz, shpatel, bo'r, duradgorlik yelimi, pista ko'mir, doka, xitoy qoqozi, igna, alif, lak, tilla

va kumushdan tayyorlangan qallar, 1- 20 nomerli mo'yqalamlar va boshqalar. Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, qaraqay, nok, yong'oq, DSP va boshqa yog'ochlar tanlanadi. Yog'och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi. Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvarel, emulsiyali bo'yoq, mineral bo'yoq, moy bo'yoq, tempera bo'yoqlari. Yog'och buyumlarini naqshlashda eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo'yoqni boshqa bo'yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, guash bo'yoqlari zarur quyuklikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Yog'och buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qog'ozi bilan jilvirlab chiqish kerak bo'ladi. So'ngra, unga alif moyi yoki duradgorlik yelimi surtiladi. Buyum yuzasini yanada tekislash, silliqlash maqsadida maxsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so'ng, mayda donali jilvir qoqozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga axta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Shpaklyovka naqshlanadigan sirtlarga silliqlab, tekislash uchun qo'llaniladigan maxsus quyuk massa. U bo'r (mel), yog'och elimi, alif moyi, suv, sovun kabi moddalarni qo'shgan qolda aralashtirib tayyorlanadi. qoplama (shpaklyovka)lar tarkibida qo'llanilgan moddalariga ko'ra yelimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo'shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan



moybo'yoqlar ishlov beriladigan sirtlarni silliqdashda foydalaniladi. Yelimli shpaklyovka devor sathlarini pardozlash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning ustidan suv bo'yoqlari surtiladi. Xoka tayyorlash: surup mato yoki dokaga chala yongan yog'och (pista) kukuni ezib solinadi va u xaltacha tugib qo'yiladi. Axta – ya'ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qog'oz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo'laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo'lagi chizib olinadi.

So'ng, buklangan qog'oz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qog'oz qati yozilganidan so'ng esa yaxlit naqsh kompozitsiyasining hosil bo'lganligini ko'ramiz. Endi uni buyumning sirtiga qo'yib, xoka yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin.



12-Mavzu: Interyer va eksteryerni amaliy bezash. Tanlangan interyer yoki eksteryerni amaliy bezash eskizini tuzish.

Reja:

- 1. Intererning devor qismi uchun naqsh kompozitsiyalarini tuzish***
- 2. Intererning shift qismi uchun naqsh kompozitsiyalarini tuzish.***
- 3. Shift yuzalarini karniz, xovuz, gumbaz, qubba ko'rinislari.***

Xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'analarga nihoyatda boy. Naqqosh ustalarning ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllardan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Insoniyat o'zi uchun zarur hisoblagan barcha kiyim-kechak, ro'zg'or va uy-ro'zg'or anjomlarini doimo takomillashtirib, bezatib keladi. Shu bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jihozlarning o'z bezatilish usullari, materiallarga ishlov berishdagi o'ziga xos bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berib yasatilgan buyumlar kishilarga estetik zavq bag'ishlab, hayotga bo'lgan munabbatlarini yanada oshiradi.

Ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik buyumlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boyliklari, ma'naviy qadriyatlari hisoblanadi. An'anaviy o'zbek naqqoshligida nafaqat binolarni bezash, balki yog'ochdan yasalgan buyumlarga ishlov berish ham yaxshi rivojlangan. Bularga mebellar, sovg'abob buyumlar, musiqa asboblari va uy-ro'zg'or buyumlari ham kiradi. Shuningdek, quticha, xontaxta, kursi, stol-stullar, tuzdon, non idishi, sabzi taxta, qoshiq, lagan, sandiq va xokazolar shular jumlasidandir. Uy-ro'zg'or buyumlari va jihozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalari tushirish, pardoqlash kishidan anchagina malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Zero, yog'och buyumlarini naqshlashda xalq ustalari erishgan yutuqlar benihoya kattadir. Ularning ijod namunalari respublikamiz va chet-ellarda turli muzey, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda keng namoyish etilib kelinmoqda. Ularning

barchasi haqli ravishda yuqori baholar olmoqda. Naqsh san'atida yog'och buyumlariga o'ta mohirlik bilan jilo bergan ustalar O.Qosimjonov, Y.Raupov, J.Hakimov, T.To'xtaxo'jaevlardir. Shu jumladan zamonaviy naqqosh ustalarning ham ijodiy ishlari tahsinga loyiq. Ulardan Mahmud To'raev, Anvar Ilhomov, Abdulla Akbarov, Hamidulla Isokjonov va boshqalarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini hisobga olgan holda boshlang'ich qoralama eskizlari ishlanadi. Hosil bo'lgan aniq o'lchamlardagi qoralamalar asosida buyum yasalib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

- Tayyor bo'lgan (yasalgan) yog'och buyumlariga jilvirlash orqali ishlov berish.
- Yuza sirtlarini bo'r va elim aralashmasi (shpaklyovka) yordamida silliqlab chiqish.
- Naqsh kompozitsiyasini buyum sathiga ulgi yordamida tushurish.
- Naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish.
- Pardoqlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo'lgan buyumning rang koloriti aniqlangach, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

1. *Naqsh zaminini ranglash.*
2. *Naqshning gullari va barglarini turlash.*
3. *Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.*
4. *Siyoh qalam tortish.*
5. *Naqshning gullari va barglariga targ'il tortish.*
7. *Naqshning oq bandlari va obisini tortish.*

Yog'och buyumlarini naqshlashda mola, obi, siyoh qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Pardoqlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, qizil, to'q ko'k, to'q yashil, jigar rang kabi to'qroq tusdagi bo'yoqlar yordamida bajariladi. Yog'och buyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli laklardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yog' va kanifoldan tayyorlangan. Toshkent naqqoshlaridan Olimjon Qosimjonovning

aytishiga ko'ra, fabrika laki ishlab chiqarilgunga qadar, ustalar egar moyi" deb atalgan lakni ishlatganlar. Bu lakning aralashmasi elim (tog' o'simliklarining suvi), kunjut moyi va kanifol bo'lgan. "Egar moyi" bo'yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yuzani darz ketishidan, yemirilishidan saqlagan.

Yog'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo'ladi. Jilvir qog'oz, shpatel, bo'r, duradgorlik elimi, pista ko'mir, doka, xitoy qog'ozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan hallar, 1- 20 nomerli mo'yqalamlar va boshqalar. Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, qarag'ay, nok, yong'oq, DSP va boshqa yog'ochlar tanlanadi. Yog'och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi. Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvarel, emulsiyali bo'yoq, mineral bo'yoq, moy bo'yoq, tempera bo'yoqlari. Yog'och buyumlarini naqshlashda eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo'yoqni boshqa bo'yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, guash bo'yoqlari zarur quyuklikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Yog'och buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qog'ozi bilan jilvirlab chiqish kerak bo'ladi. So'ngra, unga alif moyi yoki duradgorlik elimi surtiladi. Buyum yuzasini yanada tekislash, silliqlash maqsadida maxsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so'ng, mayda donali jilvir qog'ozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga axta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Buyum sathidagi naqshlar ranglanib, pardozi beriladi. So'ng u quriganidan keyin, rangsiz lak bilan qoplab chiqiladi. Shpaklyovka naqshlanadigan sirtlarga silliqlab, tekislash uchun qo'llaniladigan maxsus quyuk massa. U bo'r (mel), yog'och yelimi, alif moyi, suv, sovun kabi moddalarni qo'shgan holda aralashtirib tayyorlanadi. Qoplama (shpaklyovka) lar tarkibida qo'llanilgan moddalariga ko'ra elimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo'shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan moybo'yoqlar ishlov beriladigan sirtlarni silliqlashda foydalaniladi. Elimli shpaklyovka devor sathlarini pardozi uchun mo'ljallangan bo'lib, uning ustidan suv bo'yoqlari surtiladi. Xoka tayyorlash: surup mato yoki dokaga chala yongan

yog'och (pista) kukuni ezib solinadi va u xaltacha tugib qo'yiladi. Axta – ya'ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qog'oz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo'laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo'lagi chizib olinadi. So'ng, buklangan qog'oz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qog'oz qati yozilganidan so'ng esa yaxlit naqsh kompozitsiyasining hosil bo'lganligini ko'ramiz. Endi uni buyumning sirtiga qo'yib, xoka yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin. Binolarni o'zbek milliy uslubida bezash. O'zbekistonda juda qadimdan rivojlanib kelayotgan o'zbek xonadoni dizayni xalq amaliy san'ati turlarini keng qamrab olgan bo'lib, xalqning uy sharoitlari, ro'zg'or va kiyim-kechaklarida o'z aksini topgan. Xususan o'zbek milliy uylarini naqshlashning o'ziga xos qonun-qoidalari hozirgacha saqlanib, rivojlanib kelmoqda. Jozibali ranglari bilan maftunkor, nafis naqsh namunalari o'zbek milliy me'morchiligida muhim o'rinni egallaydi. Qadimda asosan naqsh bezaklari bilan jamoat inshootlari, boy-badavlat kishilarning uylari jimjilador qilib bezatilgan. Binolarning tashqi va ichki qismlari: shiftlar, ustunlar, devor yuzalari va uy-ro'zg'or buyumlari mohirona bezatilgan. Milliy bino bezakchiligida asosan mehmon xona va ayvonlar nihoyatda bejirim jilolangan. Ularga islamiy, o'simliksimon, xandasiy, geometrik, murakkab (aralash) ko'rinishigagi naqshlar ko'plab ishlangan. Naqsh namunalarining ko'plab turlari mavjud bo'lib ulardan ayrimlari quyidagicha nomlanadi: xoshiya, ruta mehrob, madohil, zanjira, bandi rumi, mornech, turunj, davra turunj, pargori, daraxti munabbat, namoyon va boshqalar. “O'zbek binosining ichki qismidagi har bir me'moriy qismi o'ziga xos orxamental bezak tipidan tashkil topgan. Intrer ya'ni xona devori uzunasiga 3 qismga bo'lingan, devorning pastki qismi izora (panel), o'rta qismi va tana qismi friz. Devorning o'rta qismi namoyonlar, manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqalar bilan



bezatilgan. Friz qismiga har xil geometrik va o'simliksimon naqshlar ishlangan. Devorning teng qismi bilan shift o'rtasiga ganchdek ishlangan ajoyib karnizlar ishlatilgan, buni sharafa deb yuritiladi. Milliy binolarning shift qismlari xovuzak deb ataladigan yarim tsilindsimon tayoqchalarning terib chiqilishiga aytiladi. Xovuzaklar islamiy naqsh namunalari bilan bezaladi. Xalq ustalari o'z naqqoshlik maktablari an'analarini davom ettirgan holda ijod etganlar. Ular Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Farg'ona kabi shaharlarga borib naqqoshlik ishlarini bajarar edilar. Naqqosh ustalar qaysi joylarga ishga taklif etilishmasin o'z ish usullarini rivojlantirgan holda ijod etganlar. O'zbek xonadonlarining zebu – ziynati hisoblangan bezakli namoyonlar, bolorli shiftlar, tokcha, kitoba, izora qismlari murakkab, islamiy naqsh namunalari bilan bezalgan. Ganch va naqsh namunalari bilan bezatilgan milliy xonadonlar baland va serhasham qurilgan bo'lib, ularni naqshinkor ustunlar ko'tarib turgan.

Intererning devor qismi uchun naqsh kompozitsiyalarini tuzish; Interyer devorlarini bezashda xonaning balandligi, umumiy ko'rinishi, yorug'lik tushishi va xonaning turmushdagi o'rni hisobga olinadi. Interyerning qaysi rang tusiga xos ravishda naqshlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Qadimiy va zamonaviy qurilgan binolarning naqshlanish usullari o'ziga xosdir. Avvallari binolar devori milliy uslubda tokchalar, taxmon, kosamon, la'li, kitobat, mehrob kabi sharqona an'analarga xos qurilgan bo'lsa, hozirgi zamonaviy binolar yaxlit bir-butunligini saqlagan holda qurilmoqda. Intererni naqshlashda har bir devorning yuqori, o'rta va pastki (izora) qismlariga qanday bezak namunalari berish aniqlab chiqiladi. Interyerning reja va o'lchamlari to'g'ri tanlanilishi zarur. Dastavval kompozitsiyalarning haqiqiy kattalikdagi xomaki nusxasini bir bo'lagi – rapporti chiziladi. So'ngra namuna eskizining axtasi tayyorlanadi. Devor




yuzalariga gurupt yordamida boshlang'ich rang qorishmasi berilgach naqsh axtasini devor yuzasiga tushirib, ranglanib, pardozi beriladi. Interer devorining pastki qismi uchun girih, gulli girih, kompozitsiyalari tuziladi. Devorning o'rta qismlari uchun namoyon, mehrob, osma, murakkab singari naqsh turlari chiziladi. Tepa qismlarga esa turli shakllar ko'rinishigagi islamiy friz naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Ma'lumki, naqqosh ijodida eng mas'uliyatli ishlardan biri naqsh kompozitsiyalarini yaratishdir. Naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ma'lum qonun-qoidalarni o'z ichiga oladi:

- a) naqsh elementlarini nisbatini saqlash;
- b) tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;
- v) tanobdan gul barg va boshqa naqsh elementlarini o'sib chiqmasligi;
- g) o'lchamga mos naqsh kompozitsiyasini tuzish va xokazo.

Tabiat, atrof olamni rangsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, naqqoshlik san'atini ham rang tuslarisiz to'laqonli tasvirlash qiyin. Shuningdek Intererni naqsh bezaklari bilan bezashda rangshunoslik qoidalariga amal qilish albatta muhimdir.

Intererning shift qismi uchun naqsh kompozitsiyalarini tuzish.

Interer shiftlari o'tmishda va bugungi kunimizda ham o'ziga xos milliylik asosida bezaladi. Interer shiftlarini ko'pincha burchak islami, aylana qo'shband, turunj, davra turunj, girih, murakkab singari naqsh namunalari ishlanadi. Qadimda xona shiftlarini xashamatli serviqor muqarnas va boshqali ustunlar ko'tarib turgan.




Shift yuzalaridagi to'sinlar oralig'iga aylana slindrsimon yog'och bo'laklari terilib ular vassa jufta yoki bolor deb ham atalgan. Bolorlar to'lqinsimon yuza ko'rinishini eslatib, islmiy naqshlar bilan bezatilgan. O'zbek milliy xonadonlari shiftlari tekis ganch suvoklari bilan ham suvalib bezalgan. Devor va shift oralig'iga sharafa ganch quymalari o'rnatilib, shift yuzalari bo'rtma xandasiy (girih) va bir necha turdagi naqsh kompozitsiyalari bir necha turdagi naqsh kompozitsiyalari bilan naqshlangan.

Shift yuzalarini karniz, xovuz, nimxovuz, gumbaz, qubba ko'rinishlaridan

Yog'och fanerdan yasab bezatilib kelinmoqda. Shift yuzalarini naqshlashdan avval erimay naqsh kompozitsiyasi uchun o'lcham olinadi. O'lchamga mos ravishda axta qog'ozi kesiladi. So'ngra, chiziladigan naqshning rapporti va tuzilish bo'laklariga qarab ikki, to'rt, olti buklab kompozitsiyaning yarmi yoki chorak qismi chiziladi. Chizilgan naqsh namunasini igna bilan teshib chiqiladi. Tayyor bo'lgan naqsh axtasini xoka yordamida yuzaga tushiriladi. Interer shiftlarini bezashda, dastavval naqshning zamini (tagi) ranglanadi. Rang tuslari xona devor bezaklariga xamohang ravishda olinadi. So'ngra oraliq shakl yuzalari gul, novda, shkufta, barg elementlariga rang beriladi. Naqsh kompozitsiyalari ranglab olingandan so'ng, siyoh-qalam, targ'il usulida pardoz beriladi.





Mavzu yuzasidan savollar.

- 1. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalarini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?*
- 2. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalari nechta va ular qanday nomlanadi?*
- 3. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalarini chizish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?*
- 4. Naqqoshlikda Kompozitsiya tuzishda qanday komponentlarga amal qilish lozim?*
- 5. O'nta yo'l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda chizishni mashq qilishda nimalar zarur va chizish qanday amalga oshiriladi?*
- 6. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalari tuzish bosqichlari qanday?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpon, 1999.
2. Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san'ati asoslari (Metodik qo'llanma). – Urganch.: UrDU, 2005.
3. Bositxonov Z. Handasiy naqsh (giri)h)larning yechimlari. –T.: 2002, –88 b.
4. Bulatov S.S., Ahmedov M.B. Xiva naqqoshlik maktabi. –T.: Bilim jamiyati, 1994, –30 b.
5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, –48 b
6. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1997, –36 b.
7. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005.
8. Axmedov M.B., Xolmatova F.M., Rasulov M.A., Isayeva D.B. Rangtasvir
9. Bulatov S.S., Yo'ldoshev G'. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: SHarq, 2007, –80 b.

Axborot manbalari.

1. www.tdpu.uz
2. www.ZiyoNet.Uz
3. www.edu.uz
4. www.textile-press.ru
5. www.vgik.info

**MUSTAQIL TA'LIM
MASHG'ULOTLARI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI

TSM-AU-BU-CU-20 gurux talabalari uchun

AMALIY BEZAK SAN'ATI

fanidan

mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA VA
TAVSIYALAR

2023/2024 o'quv yili sirtqi ta'lim shakli, 4-kurslari uchun

Namangan – 2023

Mazkur mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar oliy vao`rta maxsus ta`lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “talaba mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo`yicha” yo`riqnoma hamda namdu ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi bo`yicha” yo`riqnoma asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:



A.Amanullayev

Ushbu mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasining 2023 yil 28 iyundagi 11-son yig`ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri:



dots. X.Rizayev

1. Mustaqil ta'limning tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil shi o'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonlibuyrug'i va "talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma" asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishi (tmi) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari

2. Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo'yicha topshiriqlarni qabul qilish shakllari

Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo'yicha topshiriqlarni quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- ◆ Mavzu asosida qoramalar
- ◆ Eskizlarni yig'ish yakuniy qismi
- ◆ slaydlar
- ◆ tarqatma materiallar
- ◆ mavzuni tahlil qilish

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim jarayonida ajratilgan topshiriqlarni talaba Universitet, fakultet' kutubxonalari yoki internet tarmog'laridan topib tayyorlaydi va qisqacha mazmunini qayd etib boradi hamda ko'rsatilgan shakllarda topshiradi. Bunda talaba har bir mavzu bo'yicha ishni bajarib, o'qituvchiga ko'rsatgan mustaqil ishi uchun ball oladi. To'planadigan ballar reyting nazorati turlariga (oraliq va joriy nazorat) qo'shiladi.

Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi me'zonlarga amal qilish mumkin.

- ◆ Mavzuning yoritilishi:
- ◆ Kutubxona va internet ma'lumotlaridan foydalanganligi-
- ◆ Ishni tushuntirishda talabaning nutqi
- ◆ Ishga ilmiy jihatdan yondoshganligi
- ◆ Imloviy va uslubiy xatolar
- ◆ Savollarga og'zaki javob:
- ◆ Berilgan barcha savollarga javob berish
- ◆ Qisman xatoga yo'l qo'yish
- ◆ Qisman to'g'ri javob berish

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMINI BELGILASHDA QUYIDAGI JIHLAR E'TIBORGA OLINISHI LOZIM:

- O'qish bosqichi;
- Muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- Talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- Fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- Kerakli ma`lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An`anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o`quv adabiyotlari va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- Ma`lumotlar bazasini belgilash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;
- darslik va o`quv qo`llanmalarining (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o`rganish. Tarqatma materiallar bo`yicha Ma`ruza qismlarini o`zlashtirish. O`qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;
- fandan nazariy va amaliy mashg`ulotlar o`tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo`naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o`rgatish, mashqlar bajarish.
- Fanga oid masalalarni, materiallarni tahlil qilish, mantiqiy mulohazalar ustida ishlash.
- Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib boradi. Fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;

- ❖ Amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- ❖ Muayyan mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- ❖ Rasm chizish;
- ❖ Amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ❖ Ilmiy maqola, tezis va ma`ruzalar tayyorlash;
- ❖ Uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASHLARI

UCHUN QO`YILADIGAN TALABLAR:

- Maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish) aniq asoslanishi;
- Vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- Topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo`lishi;
- Maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi;
- Hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- Nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimni baholashda reyting tizimini qo`llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar bo`yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholash ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma`ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida ma`ruzada berilgan o`quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o`rganish va konspekt yozish nazarda tutiladi.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalari uchun
Mustaqil ishi mavzulari:
3-kurs; Amaliy bezak sa'ati

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI		
№	Mavzu nomi	TMI shakli
4-kurs VII-semestr		
1.	Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati haqida ma`lumot to`plash	8
2.	Turli xil naqsh elementlarini chizish	8
3.	Naqqoshlik texnologiyasida foydalaniladigan asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish haqida ma`lumot to`plash	8
4.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish	8
5.	Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyasi haqida kerakli ma`lumotlarni yig`ish	8
6.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini ranglash	8
7.	Turli adabiyotlardan naqsh va uning turlari haqida ma`lumot to`plash	8
8.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini obi, siyohqalam, targ`il asosida pardoqlash	8
9.	Kompozitsiyalarning ahamiyati haqida ma`lumot to`plash	8
10.	Islimiy kompozitsiya tuzish	10
	Jami	74
11.	Kompozitsiya qonun qoidalarini o`rganish	8
12.	Girih va gulli girih kompozitsiyasi tuzish	8
13.	Turli hajmli va sovg`a buyumlariga bezakli ishlov haqida kerakli ma`lumotga ega bo`lish	8
14.	Ixtiyoriy madohil naqsh kompozitsiyasi tuzish	8
15.	Inter`er va ekster`erning amaliy bezatilishi haqida ma`lumotga ega bo`lish	8
16.	Turli xil ko`rinishdagi namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish	8
17.	Ixtiyoriy murakkablikdagi naqshli kompozitsiyalar tuzish, bo`yash va pardoqlash	8
18.	Ixtiyoriy tanlangan hajmli va sovg`a buyumlarini naqshlash	8
19.	Tanlangan ixtiyoriy inter`er va ekster`erni eskizini bajarish	8
20.	Inter`er va ekster`erni amaliy bezash.	10
	Jami	74
	4-kurs bo'yicha jami	148

Mustaqil ishlarni bajarish uchun o`quv-uslubiy adabiyotlar ro`yxati.

№	Muallif	Adabiyotning nomi	ARM dagi soni	Nashr yili
Asosiy adabiyotlar;				
1.	S. Bulatov	O`zbek xalq amaliy bezak san`ati.	-	T-1991.
2.	V.Buvayev	Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash	2	N-2020
3.	U. Umarov	Loyixalash	2	T-2018
4.	N.D.Kultasheva	Umumsan`at tarixi	2	T-2019
5.	K.Akilova, I.Abdurahmonov	Tasviriy san`atda afsona va rivoyatlar	1	T-2016
6.	T.A.Hidoyatov, S.A.Kadirova	Zamonaviy jihozlash va interyer	1	T-2012
7.	M.A. Mirzaxmedov	Boshlang`ich badiiy naqsh ishlash uslubiyati		
8.	Хасанов Р	Amaliy bezak san`ati mashg`ulotlari metodikasi (o`quv qo`llanma)	-	T-2007
9.	Valiyev A	Perspektiva (darslik)	10	T-2018
10.	Abdullayeva N.	Farg`ona vodiysi xalqining an`anaviy kashtado`zlik na`munalari	10	T-2018
11.	A.Sulaymonov	Tasviriy san`atda oqim va yo`nalishlar	10	T-2019
12.	Pulatov D	Tasviriy san`at tarixi	10	T-2019
13.	S.V.Filipov	Arxitekturnaya keramika.	-	M-1986
14.	A.I.Miklashevskiy.	Texnologiya xudojestvennoy keramiki.	-	M-1971
15.	I.Azimov.	O`zbekiston naqshu nigorlari.	1	T-1987
16.	Ibroximov.D, Sa`dullayev.N	Toshkent chinnisi	-	T-1977
17.	V.Abdiyev	Qadimgi sharq san`ati	-	T-1965
18.	Lukich G.	Keramik buyumlarni badiiy loyihalash	-	T-1978
19.	Qosimov. Y	Qadimgi farg`ona sirlari	-	N-1992
20.	Anorboyev A.	Farg`ona Qadim va o`rta asrlarda	-	S-1994
21.	Turg`unov A.	O`zbek kulolchilik san`atining hududiy xususiyatlari	-	T-2001
22.	Abdullayev N.	O`zbekiston san`ati tarixi	-	T-2007
23.	Rahimova M.	Kosonsoy tarixidan lavxalar	-	K-1996
24.	Mualliflar jamoasi	O`zbekiston san`ati	-	T-2001
25.	N.Abdullayev	Sharq xalqlari san`ati tarixi	-	T-2007
Internet manbalari;				
1.	www.zivo.net			
2.	www.person.ru			
3.	www.mf.uz;			
4.	www.tdiu.uz;			

GLOSSARIYA

GLOSSARIYA

Arxitektura – (lotincha)- me'morchilik san'ati, inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq bo'lgan alohida turi.

Assimetriya – nomutanosiblik.

Ark-xon turadigan joy, xon saroyi.

Anor - anor shaklida tasvirlangan naqshning nomi.

Anorgul - anor va anor guli ko'rinishidagi islamiy naqsh.

Atirgul – atirgul ko'rinishidagi islamiy naqsh.

Aktiv ranglar - ruhni tetiklashtiruvchi iliq ranglar.

Akvarel – (lotincha)- suvda eriydigan va osongina yuviladigan elimli bo'yoq.

Axta – nusxa ko'chirish uchun ishlatiluvchi, naqsh yo'llari teshilgan shaffof qog'oz. Xorazm ustalari axtani ulgi deb ataydilar.

Asosiy rang – Tabiatdagi sariq, qizil, zangori ranglar. Shu ranglarni birbiriga ozmi-ko'pmi aralashtirish natijasida boshqa ikkinchi darajali ranglar kelib chiqadi.

Axromatik rang – yunoncha rangsiz degan ma'noni bildirib, ular birbiridan yutadigan yoki tarqatadigan yorug'lik kuchi bilan farq qiladi. Ularga oq, qora va kul ranglar kiradi.

Aylanma islimi – uzluksiz aylanib davom etadigan o'simliksimon naqsh. Xorazm naqshlarida uchraydi.

Andaza – o'lchov, trafaret, shablon.

Arxitektura naqqoshligi – bu ikki turdan iborat: a)devor va shiplarga to'liq dekorativ naqsh berish, b)monumental naqqoshlik.

B

Bodom guli – bodom shakli ko`rinishidan hosil bo`lgan soddalashtirilgan naqsh.

Boloxona – hovlini ikkinchi qavatidagi xona. Ko`p hollarda mehmonxona vazifasini bajaradi.

Bosha – yoqoch ustunning tepasidagi bezakli qism (kapitel) Buxoroda uni yakka madohil, qo`sh madohil deb atashadi.

Binafsha – gul naqshning bir turi.

Butoq – naqqoshlikda keng qo`llaniladigan shoxcha.

Bolor – to`sin.

Bag'al – me'morlikda devorning ravoq ustidagi qo`sh uchburchak shaklli qismi. Uning yuzasi aksariyat geometrik, o`simliksimon va ramziy naqshlar bilan bezatiladi (M.:Buxorodagi Devonbegi adrasasining ikki bag'al yuzasiga islami naqsh fonida Xumo qushi tasvirlangan).

Bayt – Arab imlosida badiiy qilib yozilgan she'riy naqsh.

Berun – hovlini tashqari qismi.

Band – islami naqshlardagi gul novdasi.

Bandii Rumi – bir bandli o`simlik shakllari tasvirlangan naqsh.

Barg – bargsimon naqsh elementi.

Bargak – bargga o`xshash o`simliksimon naqsh.

Bargi bodom – bodom bargsimon naqsh elementi, u paxta chanog'iga qam o`xshaydi.

Bargi shiguft – naqsh elementi, ochilib turgan gul bargiga o`xshatib chizilgan.

Bodom gul – bodom danagisimon naqsh elementi

Bofta gulli islami – o`simlik elementlaridan tuzilgan dona gulli naqshlarning bir turi.

Bofta – naqshlardan aylanib o`tib, tanob singari hosil qilingan shakl.

D

Dahma - qabr ustiga o`rnatilgan yodgorlik, sag'ana, maqbara.

Darun – hovlini ichkari qismi.

Dahana – me'morlikda devor yoki peshtoq pilpoyasi yuzasida ajratilgan to`qri to`rtburchak hamda ravoqli shakl bo`lib, peshtoqda dahanalar ustma-ust o`rnashadi.

Davripoya – Tokchanning yuqori qismidagi yarim halqachalardan iborat doirasimon mehrob.

Dandona – sufa, ayvon va xonalarning cheka qismida eniga qator g'ishtdan terilgan hoshiya.

Daricha – kichik eshik.

Dolon – usti yopiq yo`lak.

Do`ppi – kichik havzak.

E

Epigrafika – unvonli yozuv, naqqoshlar avliyolar sharafiga bitilgan hamdu sanolarni arab yozuvida, naqshga o`xshatib tasvirlagan bezak turi.

F

Faktura – materialning tabiiy jilosi va boshqa xususiyatlari.

G

Gajak – gajaksimon qayrilgan naqsh.

Gajak gul – naqsh elementi, ikki tomonlama gajagi bor.

Gardish – doiralardan tashkil topgan, ritmik joylashgan naqshlar kompozitsiyasi.

Gardish guli – gardishga (aylanma) ga o`xshatib solingan naqsh.

Geometrik ornament – naqsh turi, har xil geometrik shakllardan tuzilgan.

Girdob – aylana naqsh.

Ganch – gips va tuproqdan iborat toshsimon jinsni o`tda qizdirish yo`li bilan hosil qilinadigan binokorlik material.

Garmoniya – ranglar uyg'unligi va mutanosibligi.

Girix – (forscha chigal, tugun) geometrik shakllardan tuzilgan handasiy naqsh.

Guash – elimli bo`yoq turi, suvda eriydi, ustidan boshqa bo`yoqni surish mumkin.

Gumbaz – qubba shaklidagi tom.

Gulbuta – gullagan o`simlik va gullarning tasviri.

Gul chinni – chinnigul tasvirlangan naqsh.

Ganchxok – ganch, qum va toza tuproqni teng miqdorda elamasdan suv bilan aralashtirib quyruq holatga keltirilgan qorishma.

Guli savsar – soddalashtirilgan gul tasviri.

Guli shashbarg – olti yaproqli guldan tashkil topgan o`simliksimon naqsh. Naqqoshlikda va zardo`zlikda ko`p ishlatiladi.

Guldon – gul solinadigan badiiy idish. Ko`pincha naqqoshlar gul solingan guldonlarni badiiy qilib tasvirleydilar. Guldonlarni kosagul, mashrafagul va boshqa turlari mavjud.

Gulzori iroqi – murakkab o`simliksimon elementlardan tashkil topgan naqsh.

Gul islimi madohili yakraftor – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan madohil naqshi.

Gul islimi madohil durafter – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan ikki qo`sh madohil naqshi.

Gul islami chor madohil – to`rt madohilli o`simliksimon naqsh.

Gul – mug`ja – kurtaksimon naqsh.

Guli sadbarg – bodom bargi va mevasimon naqsh elementi.

Guli haft rang – etti rangli gul naqshi.

Guli raftor – chiziq atrofida uzluksiz shaklda solingan “guli yakraftor”, “guli seraftor” naqshi.

H

Hovuzak – xonalar shiftidagi muqarnasli chuqurcha.

Hal – me'moriy unsurlarga va naqshlarga juda yupqa qilib oltin suvi yuritish.

I

Islimiy yak raftor – yakka holdagi novda shakli.

Islimi mehrob – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan mehrob shaklidagi turi

Islimi mug`cha – tanob va kurtaklar bilan chirmashib ketgan o`simliksimon naqsh.

Islimi majnun barg - majnuntol novdalaridan hosil qilingan o`simliksimon naqsh.

Izora – xona devorining pastgi bezak qismi (panel), shu qismga ishlangan bezak.

Iroqi – muqarnas turi bo`lib, ravoqchalarning o`zaro kesishi natijasida hosil qilinadi.

Interer – (frantsuzcha)- bino yoki xonaning ichki qismi.

Islimi -- O`simliksimon naqsh. Bu naqsh tanobli, bandli, bargli, kurtakli butalardan iborat. Ular bir-biri bilan chirmashib ketadi.

Imorat – turarjoy majmuasi.

Islimi pargori – sirkul yordamida hosil qilinadigan islimi naqsh.

Islimi du raftor – ikki yo`nalishli ruta – hoshiya naqsh. Islimi duraftor barg, kurtak, gul va boshqa unsurlardan tashkil topgan bo`lib, bir-biriga uzluksiz ulanib ketadigan islimi naqshlarni takrorlanishidan hosil bo`ladi.

Iliq rang – o`tni, qizigan jismlarni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg`ish, zarg`aldoq, qizil va boshqa ranglar.

Islimi arabi – islimi naqshning bir turi, arab naqqoshligidan olingan

Islimi barg – islimi naqshi uchun ishlatiladigan maxsus barg.

Islimi bofta – kompozitsiyaning asosiy chiziqlari bir-biriga to`qilib ketgan naqsh.

Islimi davron – motivi bir doira ichida aylangan naqsh.

Islimi doira – turlicha naqshlar bilan to`ldirilgan doira chiziqlarning bir-biriga tutashuvidan hosil bo`lgan naqsh.

Islimi zanjira – chirmashtirib, o`simliksimon zanjiraga o`xshatib ishlanadigan naqsh.

Islimi madohil – o`simliksimon elementlardan tuzilgan murakkab naqshning bir turi. Islimi mehrob – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan mehrob.

Islimi murakkab – tanob, barg, band barglari bir-biri bilan nafis chirmashib ketgan o`simliksimon murakkab naqsh.

Islimi mehrob – o`simliksimon naqshlar bilan to`ldirilgan mehrob shaklidagi turi

Islimi namoyon – mehrobga o`xshagan naqsh, ichi naqsh elementlaridan tuzilgan har xil kompozitsiyalar bilan to`ldiriladi.


Islimi obi – serbarg va sershox, g`oyatda nozik chiziqlardan iborat.

Islimi patnis – patnis nusxa naqsh.

ILOVALAR

**ISHCHI O'QUV
DASTURI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



AMALIY BEZAK SAN‘ATI
FANINING

ISHCHI O‘QUV DASTURI

2023/2024 o‘quv yili sirtqi ta‘lim shakli, 4-kurslari uchun

Bilim sohasi: 100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi: 110000 – Ta‘lim
Ta‘lim yo‘nalishi: 5110800 – Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi

Namangan-2023

Fan/modul' kodi ABSM2006	O'quv yili 2023/2024	Semestr 7/8	ECTS - Kreditlar 3+3= 6
Fan/modul' turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 7-semestr 6-soat 8-semestr 6-soat
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Amaliy bezak san'ati	32	148	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – o`rta umumta`lim maktablari uchun pedagog kadrlarni tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir fanlari bilan chambarchas bog`liq bo`lgan amaliy bezak san`ati fanini chuqur o`rgatish. SHuningdek, bo`lajak pedagog kompozitsiyaning asosiy qonunlari: kompozitsion markaz, konstruktsiya, harakat, yaxlitlik, kolorit, nisbat, me`yor, ritm, mutanosib va nomutanosiblik kabi komponentlarni bilishi va ularni tasavvur eta olishi kerak.

Fanning vazifasi – talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko`rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish; san`at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go`zallikka bo`lgan muhabbatni rivojlantirish;

➤ amaliy bezak san`atida kompozitsiya masalalari; naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar; o`quv va tarbiyaviy jarayonda amaliy bezak san`atining y`rni, interer va ekstererda badiiy bezash bilan tanishtirish;

➤ amaliy bezak san`ati o`qitish metodikasining nazariy va metodik asoslari mazmun va mohiyatini o`rganish.

II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati

O`zbek xalq amaliy san`ati va uning turlari. Naqqoshlik san`ati tarixi. Naqqoshlik san`ati maktablari va namoyondalari. Naqqoshlik san`atining ravnaqi.

2-mavzu. Naqqoshlik san`atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallar.

Naqqoshlik texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar qalam, qog'oz, chizg'ich, mo`yqalam, bo`yoqlar turlari va ulardan foydalanish.

3-mavzu. Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyasi.

Rang turlari, iliq va sovuq ranglar. Ranglar va ularning o`ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlikda ranglarning qo`llanilishi. Bo`yoqlar tayyorlash texnologiyasi. Axromatik va xromatik ranglar. Rang koloriti. Ranglash texnologiyasi. Pardozi turlari: siyoh qalam, targ`il, taroq, obi tortish.

4-mavzu: Naqsh va uning turlari haqida ma`lumot.

Naqqoshlik san`atida qo`llaniladigan naqsh elementlari: gul, barg, bargligul, shobarg, shoxbarg, bofta, shukufta, yakkaband, qo`shband, marg`ula, va boshqalar.

5-mavzu: Naqqoshlik san`atiga xos ustaxonalarda texnika xavfsizligi.

Ustaxonani texnika xavfsizligi, yong`in xavfsizlik qoidalari haqida tushuncha berish. Ustaxonada qog`ozlar, bo`yoqlar, bo`yoq suyultirgich, yonuvchan materiallardan foydalanish va ularni saqlash qoidalari.

6-mavzu: Naqqoshlik san`atida kompozitsiyaning ahamiyati.

Kompozitsiya toifalari, kompozitsiya xususiyatlari, hajmli kompozitsiyaning turlari, kompozitsiya ta`rifi, kompozitsiyaning tuzulish turlari, kompozitsiyani tashkil qilish. Kompozitsiyadagi shaklni tahlil qilish, kompozitsiya qonun qoidalari va ahamiyati.

7-mavzu: Amaliy bezak san`atida hajmli buyumlarga badiiy ishlov berish.

Amaliy bezak ishlarida qo`llaniladigan turli hajmli va sovg`a buyumlariga bezakli ishlov haqida umumiy ma`lumot berish. Buyumlarning hajmiga mos kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash.

8-mavzu: Interyer va eksteryerning amaliy bezatilishi.

Mavjud – turar joy, saroy, binolarning ichki va tashqi ko`rinishini milliy uslubda amaliy bezash. Bino inshootlarini tashqi va ichki bezaklarini milliy badiiy g`oyalar va yaxlit estetik jihatdan mukammal shaklda yaxshilashga qaratilgan echimlar.

II.2. Ma`ruza mavzularini taqsimlanishi

№	Mavzular	Soati
	2 –kurs, III-semestr	
1	Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati	2
2	Naqqoshlik san`atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallar.	2
3	Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyasi	2
4	Naqsh va uning turlari haqida ma`lumot	2

	Jami	8
	4-kurs, VIII-smestr	
1	Naqqoshlik san`atiga xos ustaxonalarda texnika xavfsizligi	2
2	Naqqoshlik san`atida kompozitsiyaning ahamiyati.	2
3	Amaliy bezak san`atida hajmli buyumlarga badiiy ishlov berish.	2
4	Interyer va eksteryerning amaliy bezatilishi	2
	Jami	8
	4-kurs bo'yicha jami	16

III. Amaliy mashg'ulot mavzulari;

1-mavzu. Naqsh va uning turlari. Oddiy naqsh elementlarini chizish.

Gul, barg va boshqalarni chizish.

Amaliy san'atga ihlos qo'ygan va uni o'rganmoqchi bo'lgan har qanday kishi amaliy san'at turlari ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalarni o'rganish uchun naqsh elementlarini chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlashning alifbosi hisoblanadi.

2-mavzu: Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish.

Oddiy naqsh na'munalarini nusxa ko'chirish orqali chizishni o'rganish topshirig'i naqqoshlikni amaliy o'zlashtirishning muhim jihati hisoblanadi. Chunki bu naqshlar sodda ko'rinishli mukammal metodik asoslangan naqsh kompozitsiyalardir.

3-mavzu: Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini ranglash.

Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va pardozlash ishlari naqsh kompozitsiyaning qalamda bajarilgan eskiz ko'rinishi yuzasiga tanlangan rang gammasida dastlabki ishlov naqsh zaminini bo'yashdan boshlanadi.

4-mavzu: Naqqoshlik san`atiga xos yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini pardozlash (obi, siyohqalam, targ'il).

Naqsh chiziqlari ustidan elementlar va bo'laklarni birmabir chegaralash uchun qo'yilgan ranglarga mos to'q bo'yoq yordamida siyoh qalam amalga oshiriladi. Siyoh qalamni guashli yuzalar uchun guash yoki akvarel bo'yog'ida tortish tavsiya qilinadi. Mo'yqalamni yurguzganda to'lqinlantirmay tekis tortish uchun imkon qadar qo'lni tayanchga qo'yib barmoqlar harakati bilan bajariladi.

5-mavzu: Islimiy naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Islimiy-o'simliksimon naqshi amaliy san'atning o'ziga xos barcha turlarida juda keng tarqalgan. Islimiy klassik naqsh turi bo'lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo'ladigan naqsh. Islimiyning turlari juda ko'p, usta kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to'ldirish bo'lsa, shu shaklning nomini qo'shib aytiladi. Chunonchi, islami mehrob, islami bodom, islami bulbul va boshqalar.

6-mavzu: Girih, gulli girih naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Oddiy girih namunalaridan nusxa ko'chirish yoki ularni mustaqil mashq qilish avvalambor geometrik yasashlarni mashq qilishdan boshlanadi. Chunki bitta girih kompozitsiyaning ichida ham bir necha shakl mujassam bo'ladi.

7-mavzu: Madohil naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Madohil (arab. — ostona, eshik) — takrorlanuvchi lolasimon shakldagi islamiy naqsh turi; naqsh mujassamotida boshlang'ich (chiqish) nuqta vazifasini o'taydi. X-XIII-asrlardan rivoj topgan. Madohil ko'rinishi jihatidan xilma-xil (g'uncha, lola, gul, uchbarg va boshqalar) shakllardan iborat. Me'morlik va amaliy san'atning deyarli barcha sohalarida keng tarqalgan.

8-mavzu: Namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish.

Namoyon - forsha so'zdan olingan bo'lib, ko'rinish manzara ma'nosini anglatadi. Ruscha panno. Namoyon mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon naqsh kompozitsiyasi voqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks ettiradi. Unda chamanzor, oqar suvlar, ko'l, yo'l va boshqa shartli tasvirlanadi. Namoyon naqsh kompozitsiyasi tevarak atrof zanjirlari ruta (hoshiya naqshi) bilan o'raladi.

9-mavzu: Murakkab naqshli kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash.

Islimiy naqsh kompozitsiyasini tuzish, Girih, gulli girih naqsh kompozitsiyasini tuzish, Madohil naqsh kompozitsiyasini tuzish, Namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish, Murakkab naqshli kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash, Hajmli va sovg'a buyumlarni naqshlash. Buyum yuzasiga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish, ranglash va pardoqlash.

10-mavzu: Hajmli va sovg'a buyumlarini naqshlash.

Amaliy bezak ishlarida qo'llaniladigan turli hajmli va sovg'a buyumlariga bezakli ishlov berish haqida umumiy ma'lumot berish. Buyumlarning hajmiga mos kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash.

11-mavzu: Buyum yuzasiga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish, kolorit asosida ranglash, pardoqlash. Buyumni loklash.

Har bir shakl ichida chizilayotgan naqshlarning simmetrik holati saqlanishi, qoʻlaniladigan elementlarning shaklga mosligi, ularni bir meʼyorda oʻsib borishi va oʻzaro bogʻlanishi hisobga olinishi muhimdir.

12-mavzu: Interyer va eksteryerni amaliy bezash. Tanlangan interyer yoki eksteryerni amaliy bezash eskizini tuzish

Tanlangan interyer yoki eksteryerni amaliy bezash eskizini tuzish, Interyer va eksteryerni bezakli holda umumiy koʻrinishi. A1 formatda devorlar yoyilmasi. Mavjud – turar joy, saroy, binolarning ichki va tashqi koʻrinishini milliy uslubda amaliy bezash. Bino inshootlarini tashqi va ichki bezaklarini milliy badiiy gʻoyalar va yaxlit estetik jihatdan mukammal shaklda yaxshilashga qaratilgan yechimlar.

Amaliy mashgʻulot mavzularini taqsimlanishi

№	Mavzular	Soati
4 –kurs, VII-semestr		
1.	Naqsh va uning turlari. Oddiy naqsh elementlarini chizish. Gul, barg va boshqalarni chizish.	2
2.	Naqqoshlik sanʼatiga xos yoʻl ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish.	2
3.	Naqqoshlik sanʼatiga xos yoʻl ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini ranglash.	4
4.	Naqqoshlik sanʼatiga xos yoʻl ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini pardoqlash (obi, siyohqalam, targʻil).	4
5.	Islimiy naqsh kompozitsiyasini tuzish.	2
6.	Girih, gulli girih naqsh kompozitsiyasini tuzish	2
Jami		16
4 –kurs, VIII-semestr		
1.	Madohil naqsh kompozitsiyasi tuzish.	2
2.	Namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish.	2
3.	Murakkab naqshli kompozitsiya tuzish, ranglash va pardoqlash.	2
4.	Hajmli va sovgʻa buyumlarini naqshlash.	2
5.	Buyum yuzasiga mos naqsh kompozitsiyasi tuzish, kolorit asosida ranglash, pardoqlash. Buyumni loklash.	4
6.	Interyer va eksteryerni amaliy bezash. Tanlangan interyer yoki eksteryerni amaliy bezash eskizini tuzish	4
Jami		16

	4-kurs bo'yicha jami		32
III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI			
№	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
4-kurs VII-semestr			
21.	Amaliy san`at va uning turlari. Naqqoshlik san`ati haqida ma`lumot to`plash		8
22.	Turli xil naqsh elementlarini chizish		8
23.	Naqqoshlik texnologiyasida foydalaniladigan asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish haqida ma`lumot to`plash		8
24.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish		8
25.	Rangshunoslik va bo`yoqlardan foydalanish texnologiyasi haqida kerakli ma`lumotlarni yig`ish		8
26.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini ranglash		8
27.	Turli adabiyotlardan naqsh va uning turlari haqida ma`lumot to`plash		8
28.	Turli xil ko`rinishdagi yo`l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini o`bi, siyohqalam, targ`il asosida pardoqlash		8
29.	Kompozitsiyalarning ahamiyati haqida ma`lumot to`plash		8
30.	Islimiy kompozitsiya tuzish		10
	Jami		74
31.	Kompozitsiya qonun qoidalarini o`rganish		8
32.	Girih va gulli girih kompozitsiyasi tuzish		8
33.	Turli hajmli va sovg`a buyumlariga bezakli ishlov haqida kerakli ma`lumotga ega bo`lish		8
34.	Ixtiyoriy madohil naqsh kompozitsiyasi tuzish		8
35.	Inter`er va ekster`erning amaliy bezatilishi haqida ma`lumotga ega bo`lish		8
36.	Turli xil ko`rinishdagi namoyon naqsh kompozitsiyasi tuzish		8
37.	Ixtiyoriy murakkablikdagi naqshli kompozitsiyalar tuzish, bo`yash va pardoqlash		8
38.	Ixtiyoriy tanlangan hajmli va sovg`a buyumlarini naqshlash		8
39.	Tanlangan ixtiyoriy inter`er va ekster`erni eskizini bajarish		8
40.	Inter`er va ekster`erni amaliy bezash.		10
	Jami		74
	4-kurs bo'yicha jami		148
III.1. Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)			
Fanni o`zlashtirish natijasida talaba:			
<ul style="list-style-type: none"> • Tasvirni formatga nisbatan joylashtirishni bilish; • Odam boshini konstruktiv echimida tasvirlay olish; • Odam boshi tasvirini xarakterini, o`xshashligini va psixologik tomonlarini a`lo darajada kursatib berish; 			

- Tasvirlangan detallar(ko‘z, burun, kuloq, lab, qo‘l, qo‘l panjasi) bajarish;
- Berilgan mavzu bo‘yicha postanovkalarni tugallangan holatiga olib kelish;
- Qoralamalarni yuqori son va sifat mutonosibligini bajarish;
- Manzaraning chizmatasviri yuqori son va sifat uyg‘unligini bajarish;
- Asarlardan mavzuga oid nusxa ko‘chirishni bilish;

Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:

- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;
- amaliy mashg‘ulotlarni bajarish.

III.2. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo‘yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YAN) nazorat turlari qo‘llaniladi. Nazorat turlari bo‘yicha baholash: 5 – “a‘lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta amaliy ish shaklida o‘tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg‘ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo‘yicha baholanib boriladi va o‘rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg‘ulot hamda mustaqil ta‘lim topshiriqlarini o‘z vaqtida, to‘laqonli bajarganligi, mashg‘ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg‘ulot va mustaqil ta‘lim topshiriqlari bo‘yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o‘rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o‘rtachalanadi**.

O‘tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo‘yicha amaliy ish shaklida o‘tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YAN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a‘lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (vaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Bulatov S.S. Naqqoshlik. –T.: Fan va texnologiya, 2010
2. Ahmedov M.B. Yog‘och o‘ymakorligi. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2017
3. Muratov X.X., Jabbarov R.R. Amaliy va badiiy bezak san‘ati. –T.; Ijod-print, 2020
4. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007
5. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. –T.: «Iqtisod–moliya», 2007
6. Qodirxo‘jaev P. Badiiy bezak san‘ati. –T: Iqtisod–moliya, 2008
7. G‘ulomov K.M. Amaliy san‘at. –T: Iqtisod–moliya, 2008

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘shlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet.

5. Sh.M Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston”, 2017 yil, 104 bet.

6. M.B. Ahmedov. Yog‘och o‘ymakorligi. –T.: Iqtisod–moliya, 2007, –108 b.

7. S.S.Bulatov, R.R.Jabbarov. Tasviriy san‘at asarlarining falsafiy va psixologik taxlili (monografiya). “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010 yil.

8. Abdullayev N. O‘zbekiston san‘ati tarixi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007, 236 b.

9. Xasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg‘ulotlari metodikasi. –T.: TDPU rizografida, 2008.

10. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

11. Marilyn Stokstad. Art histori. –Boston: 2014.

Elektron ta'lim resurslari

www.nbgf.intal.uz

www.Ziyo-Net.Uz.

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz
www.edu.uz
tdpu-INTERNET.Ped

Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:

- “Amaliy san’at va rangtasvir” kafedrasining 2023-yil, 28-iyundagi 11-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- San’atshunoslik fakulteti kengashining 2023-yil, 29-iyundagi 11-sonli majlisida ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- NamDU o‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil, 11-iyuldagi 12-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas’ul:

M.Abdumuminov - Namangan davlat universiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

A.Amanullayev – NamDU “Amaliy san’at va rangtasvir” kafedrasi p.f.n, dotsenti.



NamDU o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i.  X. Mirzaaxmedov

San’atshunoslik fakulteti dekani.  A. Sayfitdinov

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri.  X. Rizayev

Tuzuvchi.  M. Abdumuminov

TARQATMA MATERIALLAR





Gulli girih naqsh kompozitsiya na'munasi







Girih kompozitsiyalardan na'munalar

